

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

*Qo'lyozma huquqida*

**UDK**

**YULDASHEVA SHAHLO BOBOJANOVNA**

**«O'zbekistonning mustaqillik davrida saylov tizimida yuz bergan  
o'zgarishlarning mohiyati va tarixiy ahamiyati»  
mavzusida**

**5A140601 – Tarix o'qitish metodikasi**

**MAGISTR**

**akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DİSSERTATSIYA**



**Ilmiy rahbar:**

**t.f.d., dotsent Ya.A.Abdullaeva**

**Nukus-2015**

# «O'zbekistonning mustaqillik davrida saylov tizimida yuz bergan o'zgarishlarning mohiyati va tarixiy ahamiyati»

**Kirish**.....4

## **I.Bob. Mavzuning manbaviy-huquqiy asoslari va tarixshunosligi**

I.1. Mavzuning tarixshunosligi masalalari. ....13

I. 2. Inson huquqlari va saylov tizimi asoslarining yaratilishi.....23

## **II.Bob. O'zbekistonning mustaqilligi davrida saylov tizimida yuz bergan tub o'zgarishlar**

II.1. O'zbekistonda saylov qonunchiligi taraqqiyoti bosqichlari va turlari. Ko'ppartiyaviylik.....37

II.2. O'zbekistonda Prezident boshqaruvi va qonunchilik haqida.....47

## **III.Bob. Saylov jarayonlarining olib borilishi 2014, 2015 yillar**

III.1. O'zbekistonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar haqida ma'lumotlar, fikr va mulohazalar.....63

III.2. O'zbekistondagi saylovlar haqida ekspertlarning fikr va mulohazalari.....72

**Xulosa**.....83

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**.....85

**Ilovalar** .....90

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga erishgandan keyin, mustaqillikning mohiyati, yaratilgan imkoniyatlar sharofati, tarixiy ahamiyatini anglab etgan xalqning iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy jixatdan taraqqiy etishini, inson manfaatlari, xalqning tinchligi va farovonligiga xizmat qiluvchi erkin, ochiq ijtimoiy-siyosiy tizim barpo etishni ta'minlovchi keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning mustaqilligi davrida Vatan tarixini o'rganishga e'tibor qaratildi. O'tgan chorak asrga yaqin davr mobaynida mamlakatimiz tarixidagi voqealar ko'lamini va o'sish sur'ati fan va ta'lim oldiga ularni tizimli ravishda tushunib etish vazifasini qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 27 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik Kengashini tuzish to'g'risidagi" Qarorining<sup>1</sup> qabul qilinishi hamda Kengashning ishchi organi bo'lgan Muvofiqlashtiruvchi metodik markazning tashkil etilishi ham tizimli ravishda ish olib borishning naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Tarixni o'rganish davlat darajasidagi masalaga aylandi. Har bir uchrashuvda Prezident Islom Karimov tariximizning kechasi, buguni va ertasiga e'tibor qaratada, desak mubolag'a bo'lmaydi deb o'ylaymiz. 2015 yil 12 yanvarda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishida nutqida ham yana tarix haqida quyidagi fikrni bildirdi: «Unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni tarix saboqlari bilan, tarix haqiqati bilan qurollantirish lozim. Maktablarimizda, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarimizda ayni shu mavzularni xolis va haqqoniy yoritib berishga yanada ko'proq e'tibor qaratishimiz kerak<sup>2</sup>,»

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 27 январдаги "Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта-максус таълим вазирлиги хузурида Ўзбекистоннинг энг янги тарихи бўйича Жамоатчилик Кенгагини тузиш тўғрисидаги" Қарори

<sup>2</sup> Халқ сўзи. 2015 йил, 13 январь. // Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг биринчи ташкилий йиғилишидаги нутқи. 2015 йил 12 январь.

Shu boisdan ham davlatimizning mustaqillik davridagi siyosiy o'zgarishlardan biri bo'lgan saylov tizimidagi islohotlar ham o'zbek davlatchiligi rivojida eng muhim bosqichlardan hisoblanadi.

«Hozirgi vaqtda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarish va yangilanishlar tufayli parlamentning vakolat doirasi yanada kengaydi. Konstitutsiyamizga tegishli o'zgartishlar kiritdik. ... Ayni vaqtda parlament tarkibi – strukturasi, uning ba'zi bir tashkiliy jihatlari eski zamonni eslatishini, hali-beri rasmiyatchilik alomatlari saqlanib qolayotganini ham ochiq aytishimiz va bu muammolarni hal qilish ustida ishlashimiz kerak»-dedi Islom Karimov<sup>3</sup>. Shuning o'zi ham mazkur mavzuni o'rganish, tadqiq etish naqadar muhim va dolzarb ekanligini bildiradi.

Huquqiy demokratik davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatni shakllantirish, fuqarolarda huquqiy ong hamda xuquqiy madaniyatni yuksaltirish bu borada olib borilayotgan ishlarning muhimligidan dalolat beradi. Davlatning rivojlanishi va istiqboli olib borilayotgan iqtisodiy, siyosiy, davlat qurilishi, huquqiy tizim sohasidagi islohotlarga bog'liqdir.

Davlatning har tomonlama rivojlanishda parlamentning roli jo'da kattadir. Mamlakatimizda sud-xuquq sohasini demokratik asosda yanada isloh etish, mustahkamlash va erkinlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlarda parlamentning alohida o'rin tutganini ta'kidlash zarur.<sup>4</sup>

Saylovchilar davrida fuqorolarning huquqiy ongining darajasi muhim rol o'ynaydi. Shu bois, unga falsafiy, mafkuraviy va siyosiy qarashlar ta'sir etib turadi."<sup>5</sup>

Jamiyatda oshkoralikni ta'minlash; boshqa davlatlarning huquqiy tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish; badiiy adabiyotda, san'atda

<sup>3</sup> Халқ сўзи. 2015 йил, 13 январь. // Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг биринчи ташкилий йиғилишидаги нутқи. 2015 йил 12 январь.

<sup>4</sup> Халқ сўзи. 2015 йил, 24 январь. // Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. 2015 йил 214 январь №16 (6199)

<sup>5</sup> Халилов Э.Х. Ижтимоий турмушда ҳукукий онгнинг ўрни.Т.:Ўзбекистон.1997.- 12-бет

huquqiy bilimlarni tarqatish huquqiy ongini rivojlantirishning omillari bo'lib xisoblanadi<sup>6</sup>.

Aholining barcha qatlamlarini huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun asosiy e'tiborni nimalarga qaratish lozimligi haqidagi vazifalar Oliy Majlisning 1997 yil 29 avgustda tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi"da ham belgilab berilgan. Fuqarolarning jamiyat taraqqiyoti asosida yuzaga keladigan ob'ektiv talab va ehtiyojlar, mavjud imkoniyatlar, shart sharoitlar asosida shakllanadi<sup>7</sup>.

"Qonunlarimiz asoslaridan xabardor bo'lish yoshlar o'rtasida qonunbuzarlik xalatlari, odob axloqimizga zid xatti xarakatlarning oldini olishda, ularning huquqiy ongi va madaniyatini o'stirishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. qonunlarni yaxshi bilgan yoshlarga ularga rioya qiladi. Bunday inson o'zini ham oilasini ham, xalqi davlatini ham ximoya eta oladi. qonun talablariga qat'iy rioya etish, qonunlarimizga yuksak ehtirom ko'rsatish, qonun oldida hamma- prezident va oddiy fuqaro ham, erkagu ayollar ham, yoshlaru keksalar ham, tadbirkorlaru mansabdor shaxslar ham teng va ma'sul ekanini, bu masalada hech kimda aloxida imtiyoz yo'qligini chuqur idrok etish, ana shu qadriyatni ongiga mukammal singdirish barcha yoshlar uchun muxim fazilat xisoblanadi."<sup>8</sup>

Ma'lumki, davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan ta'minlash, sifat jihatdan yangi qonunchilik tizimini borpo etish, huquq va qonunlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash milliy mustaqillik mafkurasining, qolaversa, fuqarolarning dunyoqarashi, olamni tushunishi, madaniyati va onglilik darajasining tarkibiy qismidir. Zero «aslida yangi huquqiy tizimni ishlab chiqishga to'g'ri keladi. Uning o'zagini Asosiy qonun - respublika Konstitutsiyasi tashkil etadi»<sup>9</sup>.

---

<sup>6</sup> www.spc.gov.uz

<sup>7</sup> www.spc.gov.uz.

<sup>8</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон –бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли // Биздан озод ва обод Ватан қолсин.Т.:1994.45-б

<sup>9</sup> Халқ сўзи. 1997 йил 21 май.

«Bizning asosiy boyligimiz, - deb yozadi Prezidentimiz - rivojlangan davlat tuzishga olib boradigan yo'ldagi asosiy tayanchimiz - insondir. Yuksak malakali va yuksak ma'naviyatli insondir»<sup>10</sup>.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1997 yil 20 may kuni respublika huquq tartibot idoralari rahbarlari, huquqshunos olimlar, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashdi. Uchrashuvda xalqimizning huquqiy madaniyatini oshirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash, qabul qilingan qonun va qonunchilik xujjatlari mohiyatini aholi keng qatlamlariga yanada chuqurroq etkazish bilan bog'liq masalalar xususida fikrlashildi. «Biz yurtimizda erkin, huquqiy, demokratik davlat barpo etyapmiz, - dedi Prezident. - Mamlakatimizda davlat qurilishi, siyosat, iqtisodiyot ma'naviyat sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ana shu ezgu maqsadni ruyobga chiqarishga qaratilgan. Bu oliy maqsadaga erishishda xalqning huquqiy jihatdan bilimli bo'lishi, jamiyatning siyosiy faolligi, demokratik tamoyillarning kishilar ongiga teran singib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning qonunlarimiz odamlar ongida ana shu tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilishi darkor. Bu esa huquq tartibot idoralari, huquqshunos olimlar oldida turgan dolzarb vazifadir»<sup>11</sup>.

O'zbekiston mustaqillikka erishib, o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lni tanlab oldi. Bu yo'lning mohiyati bozor munosabatlariga asoslangan erkin fuqarolar jamiyatini qurish, xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratib berishdan iboratdir. Mana shu maqsadimiz qabul qilinayotgan farmonlar, hukumat qarorlari, qonunlar orqali odamlarga etib borayaptimi, halqimiz islohotlarning mohiyatini teran tushunib etyaptimi, masalaning muhim jihatlaridan biri ana shu savolga javob topishdan iborat. Buning uchun birinchidan, jamiyatning siyosiy faolligini oshirish taqozo etiladi.

Bugungi kunda odamlarimizning fikri-zikri, dunyoga, hayotga qarashi tubdan o'zgarib, ularning tobora yuksalib borayotgan siyosiy saviyasi va huquqiy madaniyati, faol grajdanlik pozitsiyasi, biz hech kimdan kam emasmiz va hech

<sup>10</sup> Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2.-Т., 1996. –224 б

<sup>11</sup> Халқ сўзи. 1997 йил 21 май

qachon kam bo'lmaymiz, degan azmu qaror bilan oldinga intilayotgani biz erishgan va kelgusida qo'lga kiritadigan katta-katta yutuq va marralarning mustahkam poydevoriga aylanayotganini ko'rmaslik, anglamaslik va buni tan olmaslik mumkin emas.

Mamlakatda adolat tamoyillari amal qilish, barqarorlik hukm surishi uchun uch sub`ektning, ya`ni davlat, jamiyat va fuqarolarning o'zaro munosabatlaridagi qonuniylik asos bo'ladi. Boshqacha aytganda, ana shu uch sub`ekt davlat, jamiyat va inson munosabatlarida uyg'unlikka, ularning manfaatlari bir-biriga mos kelishiga erishilsagina, ota-bobolarimiz orzu qilgan adolatli jamiyat barpo bo'ladi. Ular bir - birining huquqini yaxshi bilishi va hurmat qilishi osoyishtalik va farovonlikning zarur sharti va muhim omilidir<sup>12</sup>.

Keyingi yillarda O'zbekistonda bu borada ham jahon tajribasiga tayangan holda ko'p ishlar amalga oshirildi. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Milliy markazi, Amaldagi qonun xujjatlari monitoringi instituti kabi tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

“Muxtasar aytganda, xalqimizning huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi lozim»<sup>13</sup>, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz. Zero, mustaqillik so'zining zamirida ham katta, ulug' huquqqa ega bo'lish degan tushuncha yotadi.

Demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri bu inson, uning huquqi va erkinligi masalasi bo'lib, u davlat va jamiyatning qay darajada rivojlanganini ko'rsatuvchi mezondir. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga qiritgandan so'ng o'tgan qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklari to'g'risida milliy qonunchilik tizimini shakllantirishga kirishdi.

Bunda O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy normalarni tan olishi va ularga qo'shilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklariga doir Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT)

---

<sup>12</sup> [www.spc.gov.uz](http://www.spc.gov.uz)

<sup>13</sup> Қаранг: Каримов И.А. Хавфсиз ва барқарор тараккиёт йўлида. Т.6. –Т.,1998. 25-30 б

Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarni tan oldi va ularga sadoqat bilan amal qilinmoqda. Bunga quyidagilarni aytish mumkin:

1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi»ga 1991 yil 30 sentyabrda qo'shilgan. Ushbu Deklaratsiya mustaqil Uzbekistan Respublikasi imzolagan birinchi xalqaro hujjatdir.

1966 yil 16 dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari to'g'risida Paktlar»ga 1995 yil 31 avgustda qo'shilgan. «Inson huquqlari to'g'risida Paktlar» 1966 yil 19 dekabrda qabul qilingan «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro Pakt» va «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt»dan iborat. Bu xalqaro hujjatlar ham O'zbekiston tomonidan tan oldi.

O'zbekiston BMT kotibiyatining inson huquqlari va erkinliklariga doir 21 ta deklaratsiya, pakt va konvensiyalariga qo'shildi. Shuningdek, O'zbekiston Evropada Xavfsizlik va hamkorlik Tashkiloti hujjatlarini tan oldi va uning demokratik institut va inson huquqlari bo'yicha Byurosi bilan inson huquqlarini himoya qilish sohasida hamkorlik qilmoqda. Xalqaro miqyosda davlat o'z siyosatini yurgizdi. Do'nyo davlatlari O'zbekistonni tan oldi. Mamlakatimizda davlat boshqaruv tizimi o'tkazilgan saylovlar xalqaro talablar darajasida tashkil etish uchun zamin yaratildi. Mana shunisi bilan ham mazkur mavzu dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 – moddasida «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr – qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi», – deb belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasida yagona fuqarolik qabul qilingan, ayni vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

O'zbekistonda keng qamrovli demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va odil fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va ularni amalga oshirishda I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan

qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirishning mazmun mohiyati, hokimiyatlar bo'linishining konstitutsiyaviy printsiplari, davlat hokimiyati va boshqaruvni demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy o'zgarishlar, parlament masalalaridagi islohotlar yoritilgan.

Davlat boshqaruvida parlament masalasining o'ziga xos muhim o'rnining borligi ham ushbu mavzuning dolzarbligini bildiradi.

«Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning farovonligini yuksaltirish borasida erishilgan yutuqlar-har tomonlama, chuqur o'ylangan tadrijiy taraqqiyot dasturini izchil amalga oshirish natijasi»<sup>14</sup> da amalga oshirilmoqda.

**Tadqiqotning davriy chegarasi.** Dissertatsiya uchun davriy chegara etib O'zbekistonning mustaqillik davri olindi.

**Tadqiqotning hududiy chegarasi**-O'zbekiston Respublikasi deb belgilandi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi:** Mavzuning manbaviy-huquqiy asoslari va tarixshunosligi tahlilidan ma'lumki, o'rganilayotgan mavzuning ayrim yo'nalishlari bo'yicha hozirga qadar muayyan qonun-qoidalar, huquqiy asoslar yaratilgan, tadqiqotchi va olimlar tomonidan ilmiy tahlil etilib, to'liq o'rganilmagan, faqat ma'lum darajada adabiyotlar va ma'lumotlar to'plangan<sup>15</sup>.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Ishning maqsadi XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida dunyo xaritasida siyosiy va albatta iqtisodiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Yangi geosiyosiy ahvol paydo bo'ldi. Shu jumladan O'zbekiston ham mustaqil davlat sifatida dunyo hamjamiyatiga kira boshladi. O'zbekiston

<sup>14</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз таракқиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади» мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув-услугий мажмуа. Т. Иқтисодиёт. 2011. –Б. 7.

<sup>15</sup> Мавзунинг манбавий-ҳуқуқий асослари ва тарихшунослиги масалалари алоҳида бобда кўрилаётганлиги учун, бу ерда тўхтаб ўтмадик. Қаранг.: Биринчи боб, биринчи ва иккинчи бўлимлар - муаллиф Ю.Ш.

davlat mustaqilligini mustahkamlash, siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy tiklanish va yuksalishi yo'lida olib borgan tadbirlari, saylov tizimida yuz bergan ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatish hisoblanadi. Unga oid faktlarni kengroq tahlil qilish va shu asosda xulosalar bildirishdan ibrat. Shu munosabat bilan mazkur ish oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- Saylov tizimining huquqiy asoslarining yaratilishini ko'rsatish;
- O'zbekistonning mustaqilligi davrida saylov tizimida yuz bergan tub o'zgarishlarni yoritib berish;
- Huquqiy demokratik davlat qurishda saylov tizimidagi hurfikrlilikning ahamiyatini va o'rnini ko'rsatib berish;
- Saylov turlarini aniqlash;
- Mustaqillik davrida saylov jarayonlarining olib borilishini ko'rsatish;
- O'zbekistonda Prezident boshqaruvi va saylovlari haqida fikr yuritish;
- O'zbekistonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlarning olib borilishi haqida fikr yuritish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** O'zbekistonning o'z davlat mustaqilligiga ega bo'lgandan keyingi davrda jamiyatni demokratlashtirish, davlat boshqaruvi va saylov tizimida tub o'zgarishlar bo'lganligini ko'rsatishga tegishli qiziqarli ma'lumotlarni o'quvchilarga etkazishga harakat qilindi.

**Tadqiqotning bajarilish usullari.** Tadqiqotning ilmiy-uslubiy asoslarini belgilashda tavsifiy usuldan foydalanildi. Bundan tashqari butun mavzuni yoritish jarayonida ko'plab o'rinlarda qiyosiy uslubga ham murojaat etildi. Ushbu usullar yordamida davlat mustaqilligining afzalligi, saylovlardagi o'zgarishlarni ko'rsatish ko'zda tutildi.

**Tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot maktablar va oliy o'quv yurtlari, kolledjlar darsliklariga kiritilmagan ma'lumotlarni bera olishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu tadqiqot oliy o'quv yurtlari talabalarini, kolledj va maktab o'quvchilarini qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashda amaliy yordam beradi.

**Tadqiqotning tarkibiy tuzulishi.** Ish kirish, uch bob, olti paragraf, umumiy xulosalar, ilovalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Mavzu bo'yicha muallif

toʻmonidan 5 ta maqola Respublika ilmiy-ommabop gazeta va jurnallarida chop etilgan.

## **I-Bob. Mavzuning manbaviy-huquqiy asoslari va tarixshunosligi**

### **I.1. Mavzuning tarixshunosligi masalalari**

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Mavzuning manbaviy asoslari va tarixshunosligi tahlilidan ma'lumki, o'rganilayotgan mavzuning ayrim yo'nalishlari bo'yicha hozirga qadar muayyan adabiyotlar va ma'lumotlar to'plangan<sup>16</sup>.

Metodologik yondoshuvlarning xarakteriga va ilmiy baholarning xususiyatiga qarab, u quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi:

1) O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga erishgandan keyingi davlatimiz rahbari tomonidan davlat rivoji, parlament tizimi sohasi tegishli masalalarga bag'ishlangan asarlari tahlili;

2) O'zbekistonning mustaqilligi davridagi nashrlar.

3) Internet saytidagi O'zbekistondagi siyosiy-ijtimoiy voqea va hodisalar, parlament masalalari, saylovlar haqidagi fikr va mulohazalar.

**1) O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga erishgandan keyingi davlatimiz rahbari tomonidan davlat rivoji, parlament tizimi sohasi tegishli masalalarga bag'ishlangan asarlari tahlili;**

1) O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga erishgandan keyingi davlatimiz rahbari I.Karimov tomonidan davlat mustaqilligi, uning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li, siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish tamoyillari, inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat ekanligi, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha bir qator masalalarga e'tiborni qaratdi<sup>17</sup>.

<sup>16</sup> Mavzuning manbaviy asoslari va tarixshunosligi alohida bobda k'urila'etganligi uchun, bu erda t'uxtab 'utmadik.-muallif I.O.S.

<sup>17</sup> Karimov I.A. 'Uzbekistonning 'uz istiklol va taraqqiyot yo'li. –T.: 'Uzbekiston, 1992; 'Uzbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istikbolining asosiy tamoyillari. –T.: 'Uzbekiston, 1995; Inson, uning huquq va erkinliklari oliy kadriyat. Asarlar, 14–jild. –T.: «'Uzbekiston», 2006; Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yanqilash, mamlakatni modernizatsiya va isloq etishdir. –T.: 'Uzbekiston, 2005; «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konatsiyasi» nomli ma'ruzasini // Xalq s'uzi, 2010 yil 13 noyabr; 'Uzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: 'Uzbekiston, 2012; « Men 'uzimni naqat 'zbek Qorakalpok

Davlatimizning mustaqillik davridagi siyosiy o'zgarishlardan biri bo'lgan saylov tizimidagi islohotlarga Prezidentimiz alohida e'tibor qaratdi. Chunki, bu masala o'zbek davlatchiligi rivojida eng muhim masalalardan biri bo'lib, O'zbekistonni dunyoda taraqqiy etgan davlatlar qatoriga ko'tarilishida muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

«Hozirgi vaqtda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarish va yangilanishlar tufayli parlamentning vakolat doirasi yanada kengaydi. Konstitutsiyamizga tegishli o'zgartishlar kiritdik». ...

Shu bilan birga, hali bu masalani takomillashtirish, har tomonlama rivojlantirish zarurligini ham uqtiradi.

«Ayni vaqtda, - deydi Prezident, - parlament tarkibi – strukturasi, uning ba'zi bir tashkiliy jihatlari eski zamonni eslatishini, hali-beri rasmiyatchilik alomatlari saqlanib qolayotganini ham ochiq aytishimiz va bu muammolarni hal qilish ustida ishlashimiz kerak»-deb yana mazkur masalaga e'tiborni qaratadi.<sup>18</sup>

Shu bilan birga, Islom Karimov o'z asarlarida davlatni huquqiy boshqaruv, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va huquqiy demokratik davlat qurish tamoyillari haqida bir necha bor ta'kidlab o'tganlar.

«Har bir fuqaro, har bir inson o'z haq - huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Odamlarni huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy bilimlar bilan qurollantirish asosiy vazifalardan biri bo'lishi shart. Toki jamiyatning har qaysi a'zosi o'z huquqi, o'z burchi va mas'uliyatini puxta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas ekan, bizning islohot, yangilanish haqidagi barcha so'zlarimiz, sa'y harakatlarimiz besamar ketaveradi. Bugun odamlarning dunyoqarashi, ongu tafakkurini o'zgartirish mana shu masala bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi»<sup>19</sup>.

---

халкининг ҳам фарзанди деб ҳам биламан». Қорақалпоғистон Республикаси сайловчилари вакиллари билан учрашувда сўзлаган нутқи. 1992-йил 2-декабрь4 Ўзбекистон –бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли // Биздан озод ва обод Ватан қолсин.Т.:1994.45-б.; Хавфсиз ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т.,1998. 25-30 б.; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг биринчи ташкилий йиғилишидаги нутқи. 2015 йил 12 январь. ва бошқалар.

<sup>18</sup> Халқ сўзи. 2015 йил, 13 январь. // Президент Ислom Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг биринчи ташкилий йиғилишидаги нутқи. 2015 йил 12 январь.

<sup>19</sup> Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. Т.7. –Т.,1999. 245 б

«Siyosiy madaniyatni yuksaltirish kerak, - deydi I.A.Karimov-odamlar hokimiyat qarorlari qanday qabul qilinishini, ularning ijrosi qanday nazorat qilinayotganini bilishlari, bu qarorlarni tayyorlash va amalga oshirishda faol ishtirok etishlari zarur. Boshqacha aytganda, jamiyat markazda va joylarda saylangan hokimiyat o'z taqdirini qay tarzda hal etayotgani, ularning istiqbolini qay tarzda belgilayotganidan xabardor bo'lib turishi kerak»<sup>20</sup>.

Ommaviy axborot vositalari har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan erkin minbar sifatida katta ahamiyatdir. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek - ayni shu ommaviy axborot vositalari jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini va tushunchalarini himoya qilishi, odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo'yicha faol ish olib borishi lozim<sup>21</sup>.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov o'z asarlari va nutqlarida «Davlat boshqaruvini yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida»gi Farmonida, shuningdek, birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida qabul qilingan Jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish milliy dasturida o'z rivojini topdi.

Mazkur dasturda qo'yidagilar nazarda tutilgan: fuqaro, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati hamda ijtimoiy faolligini oshirish; fuqarolarga huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya berishni takomillashtirish; davlat organlari xodimlarining, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy savodini oshirish; yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish va boshqalar.

«Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi, - deb yozadi Prezidentimiz, - huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini

<sup>20</sup> Халилов Э.Х. Ижтимоий турмушда ҳуқуқий онгининг ўрни. –Т.:Ўзбекистон., 1997.- 10 б

<sup>21</sup> Ўша жойда. 285-286 б

shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdiridagina yashaydi va ruyobga chiqadi”<sup>22</sup>.

Kelajagi buyuk davlat, Prezidentimizning fikricha eng birinchi navbatda, bo'lajak fuqarolarining davlat boshqaruvi madaniyatiga, ma'lumoti va ma'naviyati haqida g'amxo'rlik qilmog'i zarur<sup>23</sup>.

Deputatlarning o'z saylovchilari oldida hisobot berishlari Oliy Majlis faoliyatida muhim o'rin tutishi lozim, deb ta'kidlaydi Prezident- ma'lum bir loyiha, konkret qonun muhokama etilayotgan paytda saylovchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish ham mumkin. Bu qonunchilikda davlat boshqaruvi faoliyatida sifatini oshiradi, qonunning ta'sirchanligini ta'minlaydi, xalqning huquqiy madaniyatini yuksaltirish imkonini beradi.

Demokratik huquqiy davlat qurish masalalarining echimi davlatning huquqiy-siyosiy asoslarini tub o'zgartirish bilan bog'liq bo'lib, bunda insonning huquqiy madaniyati darajasini oshirish bosh maqsadlardan biri hisoblanadi.

**2) O'zbekistonning mustaqilligi davridagi nashrlar. O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga erishgandan keyin parlament masalalari haqida bir qator olimlar o'z kitoblarini yaratdilar.**

A.X.Saidov<sup>24</sup>, Q.Nazarov<sup>25</sup>, A.Azizxo'jaev<sup>26</sup>, D.Bobojonova<sup>27</sup>,  
Sh.G'oyibnazarov<sup>28</sup>, M.Rustamboev, D.Ahmedov, S. Xidirov, I. Bekov<sup>29</sup>

<sup>22</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1.-Т.:Ўзбекистон,1996.-322-б

<sup>23</sup> Каримов И.А: Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2.-Т., 1996. -224 б

<sup>24</sup> Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ: Дарслик. -Т.: Адолат, 2001. -Б. 283-304; Ўша муаллиф. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва сайлов тизими. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. М.Х. Рустамбоев. - Т.: ТДЮИ нашриёти, 2005. 5-40 б.

<sup>25</sup> Назаров Қ. Ўзбекистоннинг ривожланиш стратегияси. Т.: «Академия», 2005.

<sup>26</sup> Азизхўжаев А. Давлатчилик ва маънавият. Т.: Шарқ, 1997; Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. Т., 2001.

<sup>27</sup> Бобожонова Д.Б. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусияти. - Т.,1995.

Sh.T.Qudratxo'jaev<sup>30</sup>, E.X. Xalilov<sup>31</sup> va boshqalar O'zbekistondagi davlat boshqaruvi, jamiyatni demokratlashtirish, parlament masalalari, huquqiy ong masalalari haqida keng mulohaza yuritgan.

A.X.Saidov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati, saylov tizimi, olib borilayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlar haqida keng mulohaza yuritgan.

Q.Nazarov o'ziga xos ravishda O'zbekistonning rivojlanish strategiyasining asoslarini ko'rsatib bergan.

A.Azizxo'jaev O'zbekiston mustaqilligidan keyingi davrda milliy davlatchilikning, shu bilan birga milliy qadriyat va ma'naviyatimizning tiklanishi haqida fikr yuritish bilan birga, bu tinchlik va ozodlik osonlik bilan kelmaganligini ko'rsatadi..

D.Bobojonova O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin aholining ahvoli, yashash sharoiti, shu yuilan birga demografik jarayonlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritgan.

Sh.G'oyibnazarov davlat hokimiyatini boshqarishning strukturasi, uni demokratlashtirishning tamoyillari to'g'risida o'z fikr va mulohazasini yuritgan.

M.Rustamboev, D.Ahmedov, S. Xidirov, I. Bekov O'zbekistonning mustaqillik davrida qabul etilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish bo'yicha zarur tavsiyalar bergan.

Sh.T.Qudratxo'jaev O'zbekistondagi boshqaruv va saylov tizimi, uning xalqaro talablarga javob bera oladigan tamoyillari, professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari haqida keng mulohaza yuritgan.

E.X.Xalilov esa, ijtimoiy turmushda huquqiy ongning, huquqiy madaniyatning o'rni va roli haqida keng mulohaza yuritgan.

<sup>28</sup>Гойибназаров Ш. Давлат ҳокимияти ва бошқарувини демократлаштириш йўли. Т. Ўзбекистон. 2011. – 64 б.

<sup>29</sup>М.Рустамбоев, Д.Аҳмедов, С. Хидиров, И. Беков «Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганамиз» «Янги аср авлоди», 2005-йил

<sup>30</sup> Қудратхўжаев Ш.Т. Ўзбекистонда профессионал парламент тизимининг сиёсий институт сифатида шаклланиши ва ривожланиши истикболлари. Т.: Шарқ НМАК, 2007.

<sup>31</sup>Халилов Э.Х. Ижтимоий турмушда ҳуқуқий онгнинг ўрни. –Т.:Ўзбекистон., 1997.- 10 б

### **3) Internet saytidagi O'zbekistondagi siyosiy-ijtimoiy voqea va hodisalar, parlament masalalari, saylovlar haqidagi fikr va mulohazalar.**

Shu bilan birga, ushbu magistrlik ishini yozishda ommaviy aborot vositalari, xususan gazeta va jurnallar, internet materiallaridan keng foydalanildi. Bunda mamlakatimizda bo'lib o'tayotgan siyosiy jarayonlar- saylovlar haqidagi materiallar diqqatimizni tortdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga bo'lib o'tayotgan saylovlar mavzusi<sup>32</sup> Internetning E-mail:info@xs.uz. saytida keng e'lon qilinib borilgan.

Chunki, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida o'tkazilayotgan mazkur siyosiy tadbir xalqaro hamjamiyatning diqqat-e'tiborida turibdi. Xususan, Ozarbayjon, Bel'giya, Hindiston, Latviya, Malayziya, AQSh, Turkiya va Yaponiya singari davlatlarda ommaviy axborot vositalari uchun maxsus brifinglar tashkil etildi. Mazkur tadbirlarda chet ellik jurnalistlar yurtimizda saylov qonunchiligiga muvofiq o'tkaziladigan parlament saylovlariga tayyorgarlik jarayoni bilan tanishganligi aytilgan. Bu ham dunyo jamoatchiligining mamlakatimizda bo'lib o'tadigan ushbu muhim siyosiy voqea qiziqishi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Jumladan, «Diplomat» (Buyuk Britaniya), «The Korea Post» (Koreya Respublikasi), «Al-Aklam va al-Kutub» (Misr), «Lyaovan» (XXR) jurnallari, «The Korea Times» (Koreya Respublikasi), «Japan Times» va «Japan Neo's» (Yaponiya), «Election Times» (Pokiston), «Dunfan Tszaobao» (Xitoy), «Bakinskiy rabochiy» (Ozarbayjon), «Vesti» (Isroil), «Kazaxstanskaya pravda» (Qozog'iston) gazetalari va boshqa davriy nashrlarda joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan parlament saylovlariga bag'ishlangan maqola va materiallar chop etilgan. «Trend» (Ozarbayjon), «Baltic Neo's Service» (Latviya) axborot agentliklari, «Jen`min`van» (Xitoy), «Sarkaritel» (Hindiston) elektron portallari ham o'z o'quvchilarini O'zbekistondagi saylovlarning davlat va jamiyat hayotini

<sup>32</sup> Интернет сайт – E-mail:info@xs.uz

yanada liberallashtirish va demokratlashtirishdagi o'zni hamda ahamiyati bilan tanishtirishga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekistonda parlamentarizm sohasidagi islohotlar haqida «Baltic Neo's Service» (Latviya) axborot agentligi ham quyidagicha ma'lumot beradi: «Siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarga saylov kampaniyasi mobaynida teng sharoitlar va imkoniyatlar yaratishga, fuqarolar saylov huquqini ishonchli ta'minlash, ularning o'z xohish-istagini erkin bildirishi, saylov komissiyalari faoliyatining oshkoraligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qator qonunlar takomillashtirildi. Mustaqillik yillarida mamlakatda samarador va demokratik saylov tizimini shakllantirish hamda rivojlantirish sohasida chuqur islohotlar o'tkazildi.

2003 va 2008 yillarda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida», «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunlarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi».

«The Korea Post» (Koreya Respublikasi) jurnalida ta'kidlanishicha, saylovlar demokratik huquqiy davlatning ajralmas xususiyati, xalqning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishining asosiy shaklidir. Saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari — quyi darajadagi o'zini o'zi boshqarish tizimining an'anaviy demokratik tizimi bo'lmish mahallalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jurnalda bu xususda quyidagilar keltiriladi: «Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan farqli ravishda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlarni ilgari surish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov bo'yicha uchastka saylov

komissiyalarining a`ziligiga nomzodlarni tegishli okrug saylov komissiyalariga taqdim etish huquqiga egadirlar»<sup>33</sup>.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining majlislari haqidagi xabarlar Internet saytlarida muntazam ravishda e`lon qilinib borilgan. Ya`ni, "O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 11 va 48-moddalariga muvofiq, 2015 yil 4 yanvarda 22 ta saylov okrugida bo`lib o`tgan takroriy ovoz berish natijalari, mamlakat parlamenti Qonunchilik palatasi saylovi yakunlari xabar qilingan<sup>34</sup>.

Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90, 117-moddalari, "O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 14, 35, 36-moddalari, "O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 5, 9-moddalari hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o`tkazuvchi okrug saylov komissiyalari va O`zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarida huzurida tuzilgan uchastka saylov komissiyalaridan olingan ovoz berish natijalari to`g`risidagi M.Abdusalomovning<sup>35</sup> qarori ham e`lon qilingan.

O`zbekiston Respublikasining Londondagi elchixonasida O`zbekiston Prezidenti saylovining yakunlariga bag`ishlangan brifing Buyuk Britaniya ijtimoiy-siyosiy va ilmiy akademik doiralarining vakillari ishtirokida «Earth Times» onlayn-gazetasi muharriri David Armstrong quyidagi fikrni bildiradi: «Men O`zbekistonga Prezident saylovini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish maqsadida bordim, Saylov yuqori darajada tashkil etildi. Shu o`rinda ovoz berish jarayoni raqobatchilik ruhida kechganiga, xolislik va shaffoflik muhitida o`rganiga guvoh bo`lganimni qayd etishni istar edim. Islom Karimovning ushbu saylovdagi g`alabasi uning davlat rahbari lovozimida ishlagan kezlari mamlakatda qo`lga kiritilgan muvaffaqiyatlarning e`tirof etilganidan dalolat beradi»<sup>36</sup>.

<sup>33</sup> Интернет сайт – E-mail:info@xs.uz. «Жаҳон» АА.

<sup>34</sup> Интернет сайт – E-mail:info@xs.uz. Қобил Хидиров.

<sup>35</sup> Интернет сайт – E-mail:info@xs.uz. 2015 йил 6 апрель.

<sup>36</sup> Интернет сайт – E-mail:info@xs.uz. Ўзбекистон Республикасининг Лондондаги элчихонасида...

O'zbekistondagi saylov masalasi ko'pgina boshqa chet ellik siyosatchilarni ham befarq qoldirmadi. Unga quyidagilarni misol qilib ko'rsatimiz mumkin. Litva Markaziy saylov komissiyasi raisi Zenonas Vaygauskas, Vijay Jolli, "Bharatiya Janata" partiyasining tashqi aloqalar bo'limi muvofiqlashtiruvchisi (Hindiston), Alihaydar Rzaev, xalqaro kuzatuvchi (Birlashgan Arab Amirliklari), Kim Yon Gu, "Shindong Resources" kompaniyasi prezidenti (Koreya Respublikasi), Kerol Robertson Lopes, N'yu-Meksika shtati bolalar jamg'armasi ijrochi direktori (AQSh), Tigran Mkrtichev, Sharq muzeyi bosh direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari (Rossiya), Gerxard Birkl, "Silk Road" madaniy-jamoat kompaniyasi direktori (Germaniya), Ali Abdulla Muborak Al Mazrui, «Buruji» kompaniyasining tashqi iqtisodiy aloqalar departamenti boshlig'i (Birlashgan Arab Amirliklari), Je Kin Choy, Ipak yo'li jamg'armasi raisi (Koreya Respublikasi), Oleg Gallyamov, kuzatuvchi (Rossiya Federatsiyasi), Verner Furman, "Evropa-Berlin" do'stlik jamiyati raisi (Germaniya), Kerolin Lemm, Amerika-O'zbekiston savdo palatasi raisi, Eko Shri Margiante, Eko Shri Margiante, Gunadarma universiteti rektori (Indoneziya), Limb Jong-Myong, «Diplomacy» jurnali muharriri (Koreya Respublikasi), Yoxann Xertsog, Vena parlamenti prezidenti (Avstriya), Nobuko Furman, "Evropa-Berlin" do'stlik jamiyati raisi yordamchisi (Germaniya), Dmitriy Mezentsev, Shanxay hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi, Ali Abolhassaniy, Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) kuzatuvchilari missiyasi rahbari, IHTning siyosiy departamenti direktorii, Sergey Lebedev, MDH ijroiya qo'mitasi raisi — ijrochi kotibi va boshqalar O'zbekistondagi barqaror taraqqiyot va rivojlanish, amalga oshirilgan o'zgarish va yangilanishlar, O'zbekistondagi saylov tizimi umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga to'la mos ekanligi haqida qiziqarli ma'lumotlar bergan.

Ayniqsa, Kenichi Matsumoto, Yaponiya tibbiyot uskunolari sohasida tashqi texnik ko'mak tashkiloti prezidenti, "Matsumoto" jamg'armasi raisining fikri diqqatimizni tortdi: «Demokratiyaning barcha davlatlarda bir xil joriy etilishi lozim bo'lgan universal modeli yo'q. Har bir tizim muayyan xalqning manfaati, madaniyati, an'ana va urf-odatlarini, mamlakatning jo'g'rofiy-tarixiy sharoitini hisobga olgan holda joriy etilsa yuksak samara beradi. O'zbekistonda amalga

oshirilayotgan demokratik islohotlar, jumladan, saylov tizimi xalqaro andozalar va demokratik davlatlarning ilg`or tajribasi, xalqning an`anaviy qadriyat va qarashlarini mujassamlashtirgani bilan ham diqqatga sazovordir. Menimcha, saylovlar huddi O`zbekistondagidek erkin, adolatli, ochiq va oshkora, tartibli va osoyishta o`tishi lozim. Zero, tinchlik va osoyishtalik taraqqiyot va farovonlikning asosi hisoblanadi. O`zbekistonda jismonan chiniqqan va ma`nan etuk avlodni kamol toptirishga qaratilayotgan e`tibor, bu yo`lda olib borilayotgan sa`y-harakatlarni yuksak baholayman,- deb fikr bildirgan.

O`zbekistonda yosh avlod tarbiyasiga qaratilayotgan e`tibor, yoshlarga oid davlat siyosati boshqalar uchun namuna bo`lib xizmat qilayotganligi, yoshlarning keksalarga ko`rsatayotgan hurmat va ehtiromi, odamlarning bir-biriga bo`lgan go`zal muomalasi, O`zbekiston xalqining madaniyati, albatta, barchaning tahsiniga loyiq deb biz, ya`ni ushbu magistr ishi muallifi ham fikr bildiramiz.

Shunday qilib, yuqorida o`rganilgan asarlar, ilmiy tadqiqotlar, adabiyotlar, maqolalar, internet saytidagi maqolalar, xalqaro ekspertlarning fikr va mulohazalari mazkur mavzuni, ya`ni O`zbekistonda Prezident boshqaruvi, inson huquqlari, saylovlarga tegishli masalalarni ma`lum darajada yoritganlar. Bu esa o`z navbatida ushbu magistrlik ishini yozishda juda katta yordam berdi.

## I.2. Inson huquqlari va saylov tizimi asoslarining yaratilishi.

O'zbekiston inson huquqlari masalasida bir qator xalqaro huquq normalariga oid ish olib bormoqda. Shu bilan birga, saylov qonunchiligiga oid ham hujjatlar qabul qilindi.

Shuningdek, «Inson huquqlari. Inson huquqlari to'g'risida Bill'»; «Inson huquqlari: Umuminsoniy va milliy birlik: (Xalqaro shartnoma va O'zbekiston Respublikasi Qonuni)»; «YUNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlari»; «Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida» kabi qonun-qoidalar va qonun osti hujjatlari qabul qilindi. Bu hujjatlar O'zbekistonning dunyo darajasidagi davlatlar qatoriga qo'shilishini, mintaqamizdagi o'rnini va siyosatini belgilab berdi<sup>37</sup>.

O'zbekiston davlati tomonidan qabul qilingan qonun-qoidalar haqida so'z yuritganimizda, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida fikr yuritamiz<sup>38</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- o'zbek milliy davlatchiligining huquqiy kafolatlarini o'zida mustahkamlagan. Konstitutsiya inson huquqlari, ozodlik, barqarorlik va taraqqiyot majmuini ifodalaydigan demokratiya, huquqiy va adolatli davlatni qurish yo'li va istiqbolini belgilab beraiga hujjatdir.

Har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan to'musnomadir. Shu ma'noda Asosiy qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va

<sup>37</sup> Inson huquqlari. Inson huquqlari to'g'risida Bill'. T.: Adolat, 1992. 264 b.; Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсий фаолиятининг сиёсий принциплари то'ғрисида. Ўзбекистон Республикаси қонуни. 1996 й декабр.; Inson huquqlari: Umuminsoniy va milliy birlik: (Xalqaro shartnoma va Ўзбекистон Республикаси Қонуни). Т.1. Т.: Шарқ, 1996. -480 б.; ЮНЕСКО халқаро ме'ёрий ҳужжатлари. Т.: Адолат, 2004. 298 б.; Норматив ҳуқуқий ҳужжатлар то'ғрисида. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 2001, №1-2. 176 б.;

<sup>38</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 1992; -2014.

madaniyatini aks ettirgan. Konstitutsiyamiz tom ma'noda xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasining 1992 yilgi Konstitutsiyasini AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya davlatlari, BMT kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning olimlari yuqori baholadilar. Chunki Asosiy qonunni yaratishda ham boy milliy-tarixiy, huquqiy merosimizga tayanilgan hamda xalqaro huquqning umume'tirof etgan qoidalariga va ilg'or demokratik davlatlarning konstitutsiyaviy tajribasiga asoslanilgan.

“Bugun bizning huquqiy doktorinamiz mutlaqo yangicha, demokratik tamoyillarga asoslangan. U, eng avvalo, O'zbekiston Konstitutsiyasi talablariga ko'ra, inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlaydi. Inson himoyaning bosh sub'ekti bo'lib, uning hayoti va sog'ligiga suiqasd qilish og'ir jinoyat hisoblanadi”<sup>39</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning «Shaxsiy huquq va erkinliklar» deb nomlangan VII bobida respublika fuqarolarining shaxsiy huquq va erkinliklari quyidagicha ta'riflab berilgan:

yashash huquqi;

erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;

aybsizlik prezumptsiya (lot. praesumptio – gumon, taxmin)si;

shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalanih va uy – joy daxlsizligi huquqi;

bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi;

fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi;

fuqarolarning o'z huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar bilan tanishib chiqish huquqi;

vijdon erkinligi.

Mazkur huquq va erkinliklarga har bir shaxs ega bo'ladi, hamda o'zi tomonidan mustaqil amalga oshirilib, davlat tomonidan himoya qilinadi.

<sup>1</sup> Қаранг: Каримов И.А. Буюк келажакимизнинг хукукий кафолати.- Т., 1993. 21 б.

<sup>39</sup> Ўша асар. –Б.35.

Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Fuqarolik kodeksi» (1995 yil 21 dekabr), «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida» (1994 yil 6 may), «Fuqarolar muhofazasi to'g'risida» (2000 yil 26 may), «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» (1998 yil 1 may kuni yangi tahrirda qabul qilingan) va boshqa qonunlar bilan kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida fuqarolarning siyosiy huquqlari ham mustahkamlangan.

Fuqarolarning siyosiy huquqlari Konstitutsiya, «Jamoat tashkilotlari to'g'risida», «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», «Siyosiy partiyalar to'g'risida» va boshqa qonunlar bilan himoya qilinadi.

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qiluvchi tizimga Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) va Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz kiradi.

Yuqorida takidlab o'tilganidek, 1995 yil 23 fevralda birinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) lovozimi ta'sis etiladi va bu lovozimga Rashidova Sayyora saylandi. Dastlab ombudsman (shvedcha, ombudsman – biron kishi manfaatlarining vakili) xalqaro amaliyotni o'rganish asosida ishlab chiqilgan va Oliy Majlis Rayosati tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat olib bordi.

O'zbekistonda ombudsman faoliyatining huquqiy asoslari 1997 yil 24 aprelda Oliy Majlisning VIII sessiyasida qabul qilingan «Oliy Majlisning Inson huquqlari vakili (ombudsman) to'g'risida»gi qonunda belgilab berildi. Shuningdek, hozirda 1995 yilda Oliy Majlis vakili huzurida tuzilgan Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha maxsus komissiyasi faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha respublika aholisining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida 1996 yil 31 oktyabr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Inson

huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi tashkil etildi.

O'zbekistonda saylov tizim ham barcha talab va normalarga javob beradi. O'zbekistonda demokratik jamiyatga xos saylov tizimi barpo etilishda xalqaro huquq andozalari va talablariga, ilg'or chet el tajribasiga mos saylov qonunchiligi yaratilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Dastlab saylov tizimini yo'lga qo'yish maqsadida «O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida» (1991 yil 18 noyabr) Qonunlari qabul qilindi. Saylovlar haqida, saylov o'tkazish tartiblari to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilindi. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi (1993 yil 28 dekabr), «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi

(1994 yil 5 may) va «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi (1994 yil 5 may) Qonunlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarda 18 yoshga to'lgan fuqarolarning saylash huquqiga ega ekanligi, O'zbekiston Prezidenti saylovi, Oliy Majlis saylovi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan – to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi mustahkamlab qo'yilgan.

Har bir fuqaro – saylovchi bir ovozga ega. 35 yoshdan kam bo'lmagan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 25 yoshga to'lganlar Oliy Majlisga, 21 yoshga to'lganlar viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputat etib saylanish huquqiga ega. Fuqaro bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari vujudga kelishi va faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yaratildi. Respublika parlamenti tomonidan qabul qilingan «Jamoat tashkilotlari to'g'risida», «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» (1998 yil 28 aprel), «Kasaba

uyushmalari, ular faoliyatining huquq va kafolatlari to'g'risida» (1992 yil 2 iyul`), «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonunlar shular jumlasidandir.

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin – qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy – texnikaviy, madaniy – ma`rifiy, fizkul`tura – sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalarining bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar natijasida jamoat birlashmalarining o'rni va ahamiyati tobora oshib bormoqda.

«Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonunining 6 – moddasida jamoat birlashmasining turlari to'g'risida normalar bo'lib, uni hududiy tuzilishiga ko'ra belgilanganligini ko'rish mumkin:

birinchidan, faoliyati butun respublika hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari «respublika jamoat birlashmasi» ekanligi;

ikkinchidan, viloyat, nohiya, shahar, poselka va qishloq jamoat birlashmalari «mahalliy jamoat birlashmasi» ekanligi belgilangan.

1990 – 1992 yillari O'zbekiston Respublikasining asosiy qomusi – Konstitutsiyasining qabul qilingunicha bo'lgan davrda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish maqsadida bir necha Qonunlar qabul qilindi. Bunga quyidagilarni misol qilish mumkin:

«O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlarining maqomi to'g'risida»gi Qonun, 1990 yil 31 oktyabr`.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonun, 1991 yil 31 avgust.

«O'zbekiston Respublikasi Ijroiya hokimiyati – boshqarma idoralarini tuzilishini takomillashtirish to'g'risida»gi Qonun, 1990 yil 3 noyabr`.

O'zbekiston Respublikasi «Toshkent shahar hokimini saylash tartibi to'g'risida» muvaqqat Nizomni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Riyosatining Qarori, 1991 yil 25 noyabr` va boshqalar.

1992 yil 4 yanvarda «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun mamlakatimizda mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organi – vakillik va ijro organlari tizimiga boshchilik qiladigan hokimlik va hokimlar lovozimi joriy etildi. 1992 yil 14 yanvarda ushbu qonunga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Konstitutsiyaviy qonun maqomini berdi. 1992 yilda Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 163 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati — hokimiyatlar tuzildi.

1992 yildan O'zbekistonda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish sohasida qator normativ – huquqiy hujjatlar qabul qilish borasida amaliy ishlar boshlandi. Bu hujjatlar orasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi va «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunlar, 1994 yil 5 mayda qabul qilingan «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi Qonun va boshqalar muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» deb nomlanib, unda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimi, mavqei, vazifalari, tuzilish tartibi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Konstitutsiyaga ko'ra avvalgi mahalliy vakillik organlarining nomini Kengashlar deb o'zgartildi. Ularning samarali ishlashini ta'minlash uchun viloyat, tuman va shahar Xalq deputatlari Kengashlari vujudga keltirildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, amaldagi O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinguncha mahalliy vakillik organlarining uch bo'g'inli tizimi mavjud bo'lib, ular:

- 1) viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari (Sovetlari) — yuqori bo'g'in hisoblanardi.
- 2) tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari — o'rta bo'g'in;
- 3) qishloq, posyolka, ovul xalq deputatlari Kengashlari — quyi bo'g'in;

Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining ikki bo'g'inli tizimini mustahkamladi, ya'ni quyi bo'g'in olib tashlandi. Ular o'rniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tuziladigan bo'ldi. Bu qoida «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to'g'risida»gi Qonunda o'z ifodasini topdi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada mahalliy davlat hokimiyati hokimiyat organlari ikki mustaqil organlarga – vakillik va ijroiya hokimiyatiga bo'lindi.

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, mahalliy vakillik organlariga – xalq deputatlari Kengashlari kiradi. Ular o'z faoliyatini jamoaviy (kollegial) asosda olib boradi. Xalq deputatlari Kengashlari ishining asosiy tashkiliy – huquqiy shakli sessiya hisoblanadi.

«Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonunda vakillik organlariga 21 yoshga to'lgan fuqarolar saylanadi. Saylovlar ko'ppartiyaviylik, muqobillik asosida o'tadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 tadan ko'p bo'lmagan, tuman va shahar Kengashlariga esa 30 tadan ko'p bo'lmagan deputatlar 5 yil muddatga saylanadi.

Ijroiya hokimiyatiga – hokim va uning ijroiya apparati qiradi. Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 101 – moddasiga ko'ra hokimlarning vakolat muddati – besh yil. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 102 – moddasiga ko'ra, «Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lovozimidan ozod etiladi.

Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lovozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lovozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lovozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi».

Vakillik organlari tuzilmaydigan shahar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham hokimiyatlar ta'sis etildi, ularning apparati — hokimiyat tashkil etildi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi. Toshkent shahar tumanlari hokimlari esa Toshkent shahar hokimining vakillari hisoblanadi.

Prezidentimiz Islom Karimov 2010 yil 12 noyabrda ushbu jarayonlarni hisobga olib, keyingi strategik muhim hujjat bo'lgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Kontsepsiyasi" (Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi) mavzusidagi ma'ruzasida demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning oltita ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

- Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish
- Sud-huquq tizimini isloh qilish
- Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash
- O'zbekistonda saylov xuquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish
- Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish
- Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish

O'tgan davr mobaynida Kontsepsiyada kelib chiqib 27 ta qonun, o'nlab me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, hayotimizga tatbiq etilmoqda. Umuman saylov tizimining xuquqiy asoslari qo'yidagi xujjatlar bilan shakllantiriladi.

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- Qonunlar:
- Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida;
- Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida;
- O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida va b.;
- Markaziy saylov komissiyasining qarorlari, nizomlari va yo'riqnomalari

Shu nuqtai nazardan Kontsepsiyada partiyalararo raqobatning kuchayishi, saylovoldi tashviqotining shakl va usullari tobora turli-tuman va keng miqyosga ega bo'lib borayotgani bois O'zbekiston saylov qonunchiligida saylov kampaniyasining ushbu muhim bosqichida deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga teng sharoitlar yaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan normalarni nazarda tutuvchi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunning 25-moddasiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

2013 yilda saylov qonunchligimizga kiritilgan qo'shimchalardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tarafidan 2013-yil 4-dekabrda qabul qilingan, Senat tarafidan 2013-yil 13-dekabrda ma'qullangan, 2014-jil 20-yanvarda Prezidentimiz tarafidan imzolangan qonunga muvofiq, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov haqida"gi Uzbekiston Respublikasi Qonunining 22-moddasiga qo'yidagi qo'shimcha kiritildi:

"Siyosiy partiyalar faqat o'z partiyasi a'zolarini yoki partiyasizlarni deputatlikka nomzod etib ko'rsatadi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari esa, shaxslarni u yoki bu partiyaga mansubligidan qat'i nazar, deputatlikka nomzod etib ko'rsatishga haqlidir." qo'shimchasi bilan to'ldirildi.

98-moddaga o'zgartirishlar kiritilib, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi-deb belgilandi.

2011 yil aprel` oyida Konstitutsiyaning bir qator moddalariga o'zgartishlar kiritilib, parlamentga mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining dolzarb masalalari yuzasidan Bosh vazir hisobotini eshitish va muhokama qilish, Senatga esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Hisob palatasi raisini tayinlash hamda uni lovozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash kabi qo'shimcha nazorat funksiyalari berildi. Shuningdek, birinchi marta parlament nazoratining yangi instituti — Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish amaliyoti joriy etildi. Konstitutsiyaning 78-moddasiga kiritilgan yangi norma asosida parlament nazorati instituti birinchi marta konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yildi. Parlament nazorati-xalq hokimiyatchiligi printsipini amalga oshirishni ta'minlaydigan eng demokratik nazorat shakllaridan biridir.

2003 va 2008 yillarda Konstitutsiyamizga, shuningdek, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi hamda yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida", "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida" qonunlarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

«O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonuni 1991-yil 18-noyabr`da qabul qilingan bo'lib, 1992, 1998, 1999, 2000, 2004, 2008, 2011-yillarda ushbu Qonunga o'zgarish va qo'shimchalar kiritildi.

- "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida", «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida», "Jamoat fondlari to'g'risida"gi va b. qonunlarning qabul qilinishi

- jamiyat hayotining turli sohalarida 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda

- Fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etadi.

- Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmokda (oxirgi 3 yilda ularga 11 mlrd. so'm ajratildi)

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni<sup>40</sup> «O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq holda 2002 yil 27 yanvar kuni o'tkazilgan hamda ikki palatali parlament tuzish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini o'zgartirish to'g'risidagi ikki muhim masala bo'yicha qaror qabul qilgan, shuningdek demokratik va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish yo'lini tasdiqlagan umumxalq ovoz berishi natijalaridan kelib chiqadigan asosiy yangi qoidalarni va amaldagi qonun hujjatlariga kiritiladigan o'zgartishlarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalar to'g'risida qonuni 1996 yil 26 dekabrda (N 337-I) qabul etildi. Unda siyosiy partiya tushunchasi, Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari, siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatish printsiplari, siyosiy partiyalarga a'zolik, siyosiy partiyalar faoliyatining kafolatlari, siyosiy partiyani tuzish, siyosiy partiyaning ustavi, siyosiy partiyalarni ro'yxatga olish, siyosiy partiyani ro'yxatga olishni rad etish, siyosiy partiyaning faoliyatini to'xtatib turish, siyosiy partiyaning faoliyatini tugatish, siyosiy partiyalarning huquqlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraktsiyalari, parlamentdagi ko'pchilik va parlamentdagi muxolifat. siyosiy partiyalar fraktsiyalarining blokka birlashishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesindegi va xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhleri, partiya guruhlarining huquqlari, siyosiy partiyalar mulki, siyosiy partiyalarni mablag' bilan ta'minlashdagi cheklovlar, siyosiy partiyalar faoliyatining qonun hujjatlariga va o'z ustavlariga muvofiqligini nazorat qilish haqida aytilgan.

Ushbu Qonunning 14-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesindegi va xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhleri (O'zR 20.01.2014 y. O'RQ-365-son Qonuni tahriridagi modda) haqida so'z yuritiladi

<sup>40</sup> Ўзбекистон Республикасининг Президенти И.Каримовнинг 2002 йил 4 апрельдаги №350-II Қарори. //Референдум якунлари ҳамда давлат ҳокимияти ташкил этилишининг асосий принциплари тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг Ахборотномаси, 2002 йил, №4-5, 60-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2008 йил, №12, 637-модда; 2011 йил, №12/1, 344-модда; 2012 йил, №4, 104-модда)

1994 yil 5 mayda qabu etilgan 1050-XII-sonli xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida<sup>41</sup>gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyalilik asosida besh yil muddatga o'tkazilashi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanishi haqida yozilgan. Ushbu qonun 49 moddadan iborat.

2004 yil 2 dekabrda Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni<sup>42</sup> qabul etilib, unda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining huquqlarini, majburiyatlarini hamda deputatlik faoliyatining asosiy kafolatlarini belgilaydi.

2004 yil 29 mayda Qaraqalpaqstan Respublikasi Oliy Kengashining saylov haqqida (jan'a redaktsiya) Qaraqalpaqstan Respublikasining Qonuni qabul qilindi.<sup>43</sup> Bunda Joqarg'i Kengesga hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 65 deputatdan iborat bo'lishi aytilgan.

2004 yil 2 dekabr'da O'zbekiston Respublikasining Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a'zosini chaqirib olish to'g'risida<sup>44</sup> Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosini chaqirib olish tartibini belgilaydigan qonun hisoblanadi.

---

<sup>41</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 5-сон, 125-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 3-сон, 38-модда; 1999 й., 1-сон, 20-модда; 9-сон, 206-модда; 2000 й., 5-6-сон, 153-модда; 2003 й., 9-10-сон, 134-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 37-сон, 408-модда; 51-сон, 514-модда; 2008 й., 52-сон, 510-модда; 2012 й., 51-сон, 574-модда; 2014 й., 4-сон, 45-модда.

<sup>42</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2005 йил, №1, 10-модда.

<sup>43</sup> Қарақалпақстан Республикасы Жоқарғы Кенгеси .27.06.2014-ж. 209/XV-санлы Қарарына тийкар өзгерислер киритилген.

<sup>44</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2005 йил, №1, 12-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2008, №12, 640-модда.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatini chaqirib olish tartibi Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

1-moddada ko'rsatilishicha deputatning, senatorning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini jinoiy, fuqaroviy, ma'muriy hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa turdagi javobgarlikka olib kelishi mumkin bo'lgan tarzda buzganligi; deputatning, senatorning axloq, deputatlik odobining umum e'tirof etilgan normalarini qo'pol ravishda buzuvchi va deputat, senator nomiga dog'tushiruvchi hamda davlat hokimiyati vakillik organlarining obro'siga putur etkazuvchi harakatlar, nojo'ya ishlar sodir etganligi; deputatning, senatorning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'z vazifalarini muntazam ravishda, uzrli sabablarsiz bajarmaganligi, shu jumladan tegishli xalq deputatlari Kengashlarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining majlislarida, ularning organlari ishida ishtirok etmaganligi, ularning topshiriqlarini bajarmaganligi uchun chaqirib olinishi aytib o'tilgan.

2-moddada esa, Deputatni, senatorni chaqirib olish zarurligi to'g'risidagi qaror Qonun hujjatlarini, axloq va deputatlik odobi normalarini buzgan, o'z vazifalarini muntazam ravishda bajarmayotgan deputatni, senatorni chaqirib olish zarurligi to'g'risidagi qaror tegishincha xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, Qonunchilik palatasi yoki Senati (Senat Kengashi) tomonidan qabul qilinishi aytilgan. Ushbu mazmundagi tartib-qoidalar 3, 4, 5, 6, 7- moddalarida ham ko'rsatilgan.

O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan Qonunchilik palatasi deputatining chaqirib olinishi O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan Qonunchilik palatasi deputatini chaqirib olish ham ushbu Qonunning 1-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha amalga oshiriladi. O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan Qonunchilik palatasi deputatini chaqirib olish uning oliy organi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan senatorning chaqirib olinishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan

senatorni chaqirib olish ushbu Qonunning 1-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan senatorni chaqirib olish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan amalga oshiriladi.

Deputatni, senatorni chaqirib olish bilan bog'liq xarajatlar Deputatni, senatorni chaqirib olish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi. Ushbu Qonun buzilganligi ustidan shikoyat qilish Ushbu Qonun buzilganligi ustidan Markaziy saylov komissiyasiga, tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasiga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Xar bir shaxs o'zining saylov madaniyati - siyosiy madaniyatini ko'rsatgan holda—eng munosib, fidoyi, eng bilimli, savodli, xalq manfaatini ko'zlaydigan nomzodga ovoz berishi kerak. Ana o'shanda u siyosiy madaniyatli, saylov madaniyatini ega shaxs bo'lib hisoblanadi va yurtimizning xar tamonlama rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi.

Yakuniy xulosa qilib aytdagan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va fuqoralik jamaot institutlarining turmushdgia o'rni va roli borgan sari etilishib bormoqda. Ular joylardagi axamiyatli ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni echishda, ta'sirchan jamaot nazoratini amalga oshirish, fuqarolarning xuquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilishda faoliyatni kuchaytirib borayapti. Nodavlat va notijorat tashkilotlar tashabbuskorligining ortib borishi, shu bilan birga, siyosiy tizimdagi obro'sining ham oshishi davlatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlarning samarali natijalar ko'rsatayotganligining dalilidir.

## II.Bob. O'zbekistonning mustaqilligi davrida saylov tizimida yuz

### bergan tub o'zgarishlar

#### 2.1. O'zbekistonda saylov qonunchiligi taraqqiyotining

#### bosqichlari va turlari. Ko'ppartiyaviylik.

Mustaqillik yillarida davlat hayotining yangi demokratik huquqiy asoslari yaratildi. Davlat tushunchasi, uning ma'no, mohiyati tubdan o'zgardi. U islohotlarning bosh tashabbuskori, hamda ularni muvofiqlashtiruvchi asosiy kuchga aylandi<sup>45</sup>.

Prezidentimiz I.A. Karimov takidlaganidek, «Biz uchun fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi».<sup>[1]</sup>

Xususan, istiqloq yillarida mamlakatimizda ham xalqaro huquq normalari talablariga, ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi va axloqiy qadriyatlarga, ko'p ming yillik milliy tarixiy an'analarimizga hamda Konstitutsiyamizga mos saylov qonunchiligi tizimi yaratildi.

O'zbekiston saylov qonunchiligi taraqqiyotida uchta asosiy bosqich ajratib ko'rsatiladi.<sup>[2]</sup>

*Birinchi bosqich* (1991 - 1995 yillar) – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda bir palatali Oliy Majlisni ko'ppartiyaviylik asosida shakllantirish bilan bog'liq davrni o'z ichiga oldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Bu bosqich yana bir muhim hujjatning qabul qilingani bilan ham e'tiborlidir. Bu – 1994 yil 5 mayda qabul qilingan «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonundir. Mazkur qonun xalqaro huquq normalarida standart

<sup>45</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т. Шарк. 2000.157 бет.

sifatida aks ettirilgan saylovchilarning o'z xohish-istaklarini erkin ifoda etish kabi muhim printsiptial normani mustahkamladi.

*Ikkinchi bosqich* ( 1995-2000 – yillar ) – birinchi bosqichda milliy saylov qonunchiligi asosida o'tkazilgan parlament saylovlarida to'plangan amaliy tajribaga muvofiq saylov tizimining demokratik asoslarini mustahkamlash va qonunlarga tegishli o'zgartishlar kiritish bilan bog'liq islohotlarni o'z ichiga oldi.

Bu davrda qator amaliy ishlar qilindi. Xususan, 1998 yil 30 aprelda «Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi asosida O'zbekiston saylov tarixida birinchi bor Markaziy saylov komissiyasi tuzildi. 1996 yilning dekabrda «Siyosiy partiyalar to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun 1999 yilda mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga bo'lgan saylovlarda o'ta muhim rol o'ynadi. Siyosiy partiyalar tobora toblanib borayotgan keng raqobat maydoniga aylangan kurashga chiqishlariga zamin hozirlandi.

*Uchinchi bosqich* ( 2000 – 2009 yillar ) – mamlakatimizda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'lib, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishda muhim rol o'ynagan davr bo'ldi. Ayniqsa, bu davr bevosita ikki palatali parlament tizimiga o'tish bilan bog'liq saylov qonunchiligining tadrijiy taraqqiyotida tamoman yangi bosqichni boshlab bergan islohotlar jarayonining asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etdi.

2004 yil 26 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga, 2005 yil 17-20 yanvar kunlari esa Oliy Majlisning Senatiga saylovlar bo'lib o'tdi. 2005 yil 27 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga saylovlar bo'lib o'tdi. 2005 yil 27 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palata – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata) dan iborat qilib shakllantirildi. Mamlakatimizda parlamentning ikki palatali qilib tashkil etilishi xorijlik mutaxassislar tomonidan ham yuksak baholandi. Masalan, Rim xalqaro madaniyat «Limuchi» gumanitar universiteti professori Juzepina Laura Madji xonim (Italiya)ning etirof etishicha, «O'zbekistonning ikki

palatali parlamentga o'tishi jamiyatni demokratlashtirish yo'lidagi katta qadamdir». [3]

Haqiqatan ham, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda bugun bosib o'tilgan ana shu yo'l, uning asosida erishilgan yutuq va natijalarga xolisona baho berib, aytish mumkinki, yurtimizda fuqarolarning saylov huquqlarini kafolatlash, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishini ta'minlash, saylov qonunchiligini xalqaro andazalar asosida bosqichma-bosqich takomillashtirish hamda saylovlarni jahonda umume'tirof etilgan demokratik printsiplar asosida o'tkazishning huquqiy asoslari yaratildi.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda siyosiy partiyalarning shakllanishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratildi. Ko'p partiyaviylik printsipli asosida partiyalar tizimi shakllantirildi.

Partiya so'zi – lot. *partio* — bo'laman, ajrataman degan manoni anglatadi. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi (1996 yil 25 dekabr) Qonunida siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari yanada rivojlantirildi va mustahkamlandi.

Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:

-o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish;

-qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, mahalliy vakillik hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

- partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

-qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

-O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o'rnatish;

-O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan huquqlarga ham ega.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik jamiyatning qonuniy belgisi bo'lgan ko'p partiyaviylik tizimi shakllandi, jamiyat tashkilotlari tubdan yangilandi. Hozirda O'zbekistonda 4 ta siyosiy partiya, 2 ta ijtimoiy harakat faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Qo'yidagi siyosiy partiyalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

1. «O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zbekiston XDP)» — 1991 yil 14 sentyabr kuni Toshkentda O'zbekiston Kommunistik partiyasining oxirgi favqulodda XXIII s'ezdi bo'lib, unda KPSS tarkibidan chiqish va sifat jihatidan yangi siyosiy tashkilot — «O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi»ni tuzish haqidagi Bayonot qabul qilindi. 1991 yil 1 noyabr Toshkentda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida O'zbekiston XDP si tashkil etildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

O'zbekiston XDPsining «O'zbekiston ovozi», «Golos Uzbekistana» gazetalari va «Muloqot» jurnali nashr etilmoqda.

2. «Vatan taraqqiyoti» partiyasi (VTP) — 1992 yil 24 mayda Toshkentda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida tuzilgan. Ushbu Qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 1992 yil 10 iyulda Vatan taraqqiyoti partiyasini ro'yxatga olgan.

O'zbekiston Vatan taraqqiyoti partiyasining nashri «Vatan» gazetasi ega edi. VTP 2000 yil 14 aprelda Fidokorlar milliy – demokratik partiyasi bilan birlashib, Fidokorlar milliy demokratik partiyasi nomini oldi.

3. O'zbekiston «Adolat» sotsial – demokratik partiyasi («Adolat» SDP) — 1995 yil 18 fevralda Toshkentda bo'lgan I ta'sis qurultoyida tuzildi, uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Adliya vazirligi 1995 yil 18 fevralda «Adolat» SDPni ro'yxatga olgan.

Partiyaning «Adolat» nomli ijtimoiy – siyosiy haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

4. O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (O'zMTDP) — 1995 yil 3 iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida tuzildi va partiyaning

Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 1995 yil 9 iyunda O'zMTDP ni ro'yxatga olgan.

O'zbekiston MTDPsining «Milliy tiklanish» haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

5. O'zbekiston «Fidokorlar» milliy – demokratik partiyasi (FMDP) — 1998 yil 28 dekabrda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida tuzildi. Qurultoyida partiyaning Dasturi va Nizomi tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 1999 yil 4 yanvarda O'zMTDP ni ro'yxatga olgan.

Partiyaning «Fidokorlar» nomli gazetasi nashr etilgan. 2008 yil 20 iyun` Toshkentda O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi va O'zbekiston «Milliy tiklanish» partiyasining birlashuv qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi va Fidokorlar milliy demokratik partiyasini birlashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Markaziy kengash, Markaziy nazorat – taftish komissiyasi a'zolari saylandi, birlashgan partiyaning bosma organi tasdiqlandi. Shu asosda «Fidokorlar» partiyasi «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi birlashdi.

6. O'zbekiston Liberal – demokratik partiyasi (O'zLiDeP) — 2003 yil 15 noyabrda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida tuzildi. Unda partiya Nizomi va Dasturi ham tasdiqlandi.

Partiyaning asosiy maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlar manfaatini himoya qilishdan iborat. O'zLDP ning «XXI asr» haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

O'zbekistondagi ijtimoiy harakatlar. O'zbekistonda 1995 yil 27 mayda jamoatchilikning tashabbusi bilan O'zbekiston «Xalq birligi» harakati tashkil etildi. Adliya vazirligi mazkur harakatni 1995 yil 9 iyunda ro'yxatga olgan.

Harakatning asosiy maqsadi ko'p millatli mamlakatda xalqlar birligini yanada mustahkamlash, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan huquq va erkinliklarining kafolatlarini to'la – to'kis amalga oshirish va fuqarolik, vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishdan iborat edi.

O'zbekiston «Xalq birligi» harakatining oliy organi Qurultoy bo'lib, u 4 yilda bir marta chaqirilgan.

O'zbekiston Prezidentining 1996 yil 17 apreldagi farmoniga muvofiq respublika yoshlarining «Kamolot» jamg'armasi nodavlat xayriya — jamoat birlashmasi sifatida tashkil topgan edi. Bu jamg'armasining vazifasi yoshlarning manfaat va ehtiyojlarini o'rganish, ularni qondirish yuzasidan dasturlar tuzish va davlat ko'magida hayotga tatbiq etishdan iborat edi. Ammo «Kamolot» yoshlar jamg'armasi bunday vazifalarni bajara olmadi, yoshlarning haqiqiy ma'nodagi etakchisiga aylana olmadi.

Prezident Islom Karimov 2001 yil 24 yanvar kuni Toshkentda yoshlar masalasiga bag'ishlangan yig'ilishda yoshlarning chinakam suyanchi bo'la oladigan yangi tashkilot tuzish g'oyasini ilgari surdi. 2001 yil 25 aprel kuni Toshkentda bo'lgan yoshlar qurultoyida o'zini o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkilot – O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi va uning Dasturi, Nizomi tasdiqlandi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rnini egallashga ko'maklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit – qizlarning o'z aql zakovati, kuch – g'ayratini to'la namoyon etishi uchun zarur shart – sharoit yaratib berish, yosh avlodning tayanchi va suyanchi bulishdan iboratdir. Harakatning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar bo'limlari, ta'lim muassasalari, harbiy qismlar, huquq – tartibot organlarida boshlang'ich tashkilotlari tuzildi. Ular 14 yoshdan 28 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston fuqarolarini o'z saflarida ixtiyoriy ravishda birlashtirgan holda faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1999 yilning 14 aprelida «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonuni (yangi tahrirda) qabul qilindi. Mazkur qonun fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish huquqi, organlari, ularning vakolatlari, saylash tartibi va hokazolarni belgilab berdi va shu qonun talablariga rioya qilgan holda o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar

bo'lib o'tdi. Xuddi shunday saylovlar 2003 yilning noyabr`-dekabr` oylarida butun respublika miqyosida amalga oshirilib, unda mahalla oqsoqollari va xalq maslahatchilari saylandi.

Bunday saylovlarning o'tkazilishi fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va xalq maslahatchilarini saylash tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Aynan shuning uchun ham fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida qonun ishlab chiqish va qabul qilish nihoyatda muhim edi. Ushbu maqsadda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasida «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi qonun ikkinchi o'qishda qabul qilindi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, qonunchilik organi tomonidan qabul qilinadigan har qanday normativ-huquqiy hujjat hayotda amal qilsa, huquqiy munosabat ishtirokchilari tomonidan tatbiq etilsa, ma'no-mazmun va qimmatga ega bo'ladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, fuqarolar yig'inlari, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlari har ikki yarim yil muddatga rais (oqsoqol)ni va uning maslahatchilarini saylaydi. Bu saylov tartibi O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi va «Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) va maslahatchilarini saylash to'g'risida»gi qonunlar asosida amalga oshiriladi.

Oqsoqollar saylovi benihoya muhim siyosiy tadbir bo'lib, unga jiddiy tayyorgarlik ko'rish, bu jarayonda fuqarolar faolligi o'ta muhimligini, taraddud bosqichlarida barcha kuchlarni jipslashtirish zarurligiga e'tibor qaratish lozim<sup>1</sup>. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha o'zini o'zi boshqarish organlari, ya'ni shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalar fuqarolar yig'inlari raisi (oqsoqoli)ni va uning maslahatchilarini saylash jarayoniga doir tadbirlar respublikamizda keng ravishda o'tkaziladi.

<sup>1</sup> Азизов Н. Оқсоқоллар қандай сайланиши керак? // Хуқуқ.-Право.-Лои'. 2004. №2. 37 б

<sup>1</sup> Халқ сўзи, 2006 йил 16 март

Saylov tizimi —bu saylov o'tkazishga taalluqli barcha huquqiy hujjatlar, saylov tizimi tamoyillari, fuqarolarning saylov huquqlarini o'z ichiga olgan saylov o'tkazish tartiblari hamda ularni o'rnatuvchi huquqiy normalarning yig'indisi tushuniladi.

Saylov tizimlari turli – tuman bo'lib, bir davlatda amalda bo'lgan saylov tizimlari ikkinchi davlatda o'zini oqlamasligi mumkin. Bir saylov tizimini amalga kiritishdan oldin mamlakatdagi siyosiy kuchlar va etnik guruhlarining muvozanati yaxshilab o'rganilishi lozim. Hozirgi paytda dunyo mamlakatlari tajribasida saylov tizimlarining uch katta guruhi mavjud. Bu majoritar, proportsional va aralash saylov tizimlaridir.

Majoritar saylov tizimi qoidalariga binoan, tegishli saylov okrugida belgilangan ko'pchilik ovozni olgan nomzod yoki nomzodlar ro'yxatigina saylovda g'olib chiqqan hisoblanadi. Majoritar saylov tizimi ham o'z navbatida mutloq, malakali va nisbatan ko'pchilik ovozga asoslangan turlarga bo'linadi.

Proportsional saylov tizimi keng omma vakillarining ishtirokini ta'minlash maqsadida kiritilgan saylov tizimi bo'lib, Evropa, Lotin Amerikasi davlatlarining ko'pchiligida, Afrika davlatlarining uchdan bir qismida uchraydi.

Aralash saylov tizimlari majoritar va proportsional saylov tizimlarini birlashtirish tamoyiliga asoslangan saylov tizimidir.

O'zbekistonda majoritar usul qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarda 18 yoshga to'lgan fuqarolarning saylash huquqiga ega ekanligi, O'zbekiston Prezidenti saylovi, Oliy Majlis saylovi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan - to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi mustahkamlab qo'yilgan.

Har bir fuqaro - saylovchi bir ovozga ega. 35 yoshdan kam bo'lmagan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 25 yoshga to'lganlar Oliy Majlisga, 21 yoshga to'lganlar viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputat etib saylanish huquqiga ega. Fuqaro bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

Respublikamizda saylov huquqining asosiy tamoyillari bevosita Konstitutsiyada belgilangan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ovoz berishdir. Mazkur tamoyillar qonunchiligimizda o'z aksini topgan bo'lib, ularning amalga oshirilishining huquqiy mexanizmlari mamlakatimizda fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish imkoniyatini yaratishga qaratilgandir. Saylovlarda xalq, partiya a'zolari, barcha saylov yoshidagi fuqarolar ishtirok etadilar.

Oliy majlisning 1996 yil 25 dekabrda bo'lgan VII sessiyasida "Siyosiy partiyalar to'g'risida" gi qonun umumxalq muhokamasidan so'ng qabul qilindi. Jumladan, qonunda: "Siyosiy partiya — qarashlar, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyat muayan qismining davlat hokimyatini shakllantirishdan iborat siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston Fuqarolarining ko'ngilli birlashmasidir", — deyiladi.

Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimyatini tuzishda ishtirok etadilar.

Musaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik jamiyatning qonuniy belgisi bo'lgan ko'p partiyaviylik tizimi shakllandi, jamiyat tashkilotlari tubdan yangilandi. Bugungi kunda O'zbekistonda 4 ta siyosiy partiya, 2 ta ijtimoiy harakat faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Uzbekistonda saylov qo'yidagicha o'tkaziladi..

Referendum o'tkazish.

Prezident saylovi,

Parlament saylovlari,

Maxalliy kengashlarga saylovlar

Pirovardida, o'tgan saylovlarda to'plagan tajriba ko'ppartiyaviylikka asoslangan saylov jarayonlarini yanada demokratlashtirish masalalarini kun tartibiga qo'yib, saylov tizimining ochiq va demokratikligi, saylov to'g'risidagi qonun hujjatlarining izchil takomillashtirilishi, vakillik organlarida partiyalararo

raqobatning kuchayishi va fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga bog'liq.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, demak demokratik davlatning hokimiyat idoralarini shakllantirishda saylov muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar, sud-huquq tizimi, siyosiy partiyalar, saylov qonunchiligini takomillashtirilishi xalqimizning saylovlarda siyosiy saviyasi, faolligi yuksalib borayotganini namoyish etdi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazishda saylov okruglari soni aholi, saylovchilarning soni, hudud va boshqa mahalliy shart- sharoitlarni ham ko'rishimiz mumkin. Yana shuni ta'kidlash lozimki, xalqning hayotiy tajribalariga milliy va madaniy an'analariga mos tushadigan haqiqiy demokratiya tamoyillari qaror topmoqda.

## 2.2. O'zbekistonda Prezident boshqaruvi va qonunchilik

### haqida

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy printsipini hayotga izchil tadbqiq qilish, boshqaruv tizimini markazlashtirishni cheklash, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari va nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish bo'yicha dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan. O'tgan davrda O'zbekistonda demokratik jamiyatga xos boshqaruv tizimi shakllantirildi. Shunday bo'lsada, bu tizim hayot talablariga muvofiqlashtirilib, demokratik printsip asoslariga ko'ra takomillashtirilib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat hokimiyati – bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan, muayyan tuzilmaga birlashgan davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi davlat organlari tizimidir.

**Мамлакатимизда давлат ҳокимияти субъектлари**

**Давлат бошлиғи бўлган  
Президент (Президентлик  
институти)**

**Қонун чиқарувчи  
ҳокимият (Олий Мажлис-  
Парламент)**

**Ижро этувчи ҳокимият  
(Вазирлар Маҳкамаси)**

O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimiga davlat boshlig'i sifatida Prezident, respublika hukumati sifatida Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari,

markaziy davlat boshqaruvi idoralari va ularning joylardagi mahalliy organlari, viloyat, shahar, tuman hokimlari va hokimiyatlar hamda ularning bo'limlari va boshqarmalari kiradi.

Keyingi yillarda boshqaruv sohasidagi vazifalarning bir qismi respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazildi, mahalla tizimini shakllantirishga katta e'tibor berildi. Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash ishlari amalga oshirildi va bu boradagi islohotlar davom ettirilmoqda.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, mamlakatda davlatni idora etishning zamonaviy va samarali shakli – prezidentlik tizimi qaror topa boshladi. Dunyo davlatchiligi taraqqiyotida davlat boshqaruvining asosan ikki shakli - monarxiya va respublika shakllari mavjud. Respublika, o'z navbatida, parlamentar va prezidentlik respublikasi ko'rinishlariga ega. Prezidentlik respublikasi hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan davlat boshqaruvi shaklidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 192 davlatdan 142 tasida prezident lovozimi mavjud bo'lib, ularning aksariyati prezidentlik respublikasidir<sup>46</sup>.

O'zbekistonda Prezident lovozimi 1990 yil 24 martda Oliy Kengashning 1-sessiyasida ta'sis etildi.

O'zbekistonda prezidentlik institutini mustahkamlanishida 1992 yil 8 - dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobi "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti" deb nomlangan. Mazkur bob 9 modda (89-97 moddalar)ni qamrab olgan bo'lib, ularda prezidentlikka nomzod oldiga qo'yiladigan talablar, Prezident saylash tartibi, Prezident qasamyodining matni, uning vakolatlari, Prezident chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa huquqiy normalar belgilangan.

1991 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasining referendumi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o'tkazildi.

---

<sup>46</sup> Муस्ताкиллик: изоҳли илмий - оммабоп луғат.Т.,Шарқ, 2006, 75-бет.

1991yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti saylandi. Yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri, umumiy va muqobillik asosidagi saylovda prezidentlikka nomzod Islom Abdug'anievich Karimov uchun 8 million 514 ming 136 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi ovoz berdi.

1995 yil 26 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning vakolat muddatini 1996 yil dekabrdan 2000 yilgacha uzaytirish masalasi yuzasidan umumxalq referendumini bo'lib o'tdi. 2000 yil 9 yanvarda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda I.A.Karimov 91,9 foiz ovoz bilan g'alaba qozondi. 2002 yil 27 yanvardagi umumxalq referendumini natijalariga binoan Prezidentning vakolat muddati besh yildan etti yilga uzaytirildi.

2002 yil 27 yanvardagi umumxalq referendumini natijalariga binoan Oliy Majlisning VIII sessiyasida, 2003 yil 24 aprelda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Mazkur konstitutsiyaviy qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining beshinchi bo'limi XVIII, XIX, XX va XXIII-boblariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Prezident vakolatlarining bir qismi, birinchi navbatda, davlat, sud tizimi va maxsus xizmatlarning rahbarlarini, chet davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi diplomatik vakillarni tayinlash va tasdiqlash masalalari, amnistiya e'lon qilish vakolati Oliy Majlisning Senatiga o'tkazildi. 89-moddaning "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Maxkamasining Raisi hisoblanadi". degan 2-xatboshisi olib tashlandi.

Referendum yakunlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati 5 yildan 7 yil qilib o'zgartirildi.

I.A.Karimov 2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishdir" mavzusidagi ma'ruzasida davlat qurilishi va boshqaruv sohasidagi eng muhim vazifa bo'lgan mamlakat parlamentining roli va

ta'sirini kuchaytirish, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishish yo'llarini belgilab berdi.

Davlat boshqaruvini yanada demokrakashtirish, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi tarmoqlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining zimmasiga Konstitutsiya bilan yuklangan vakolatlarning amalga oshirishdagi roli va mas'uliyatini kuchaytirish, mamlakat Prezidenti vazifalarini aniq-ravshan belgilash, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli va ta'sirini kuchaytirish maqsadida 2007 yil 11 aprelda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89- moddasiga, 93-moddasi 1-qismining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Shu o'rinda O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan qo'yidagi muhim o'zgarishlar va ko'shimchalarga e'tiborni qaratish lozim

O'zbekiston Konstitutsiyasining 89-moddasi yangi tahrirda bayon etildi: "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi". Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikka parlament faoliyatiga oid "parlamentdagi ko'pchilik" tushunchasi kiritildi. Bundan tashqari amaldagi qonunchilikka parlament faoliyatiga oid "muholifat" tushunchasi xam kiritildi .

Davlat boshlig'i sifatida Prezident davlat hokimiyati organlari tizimida etakchi va muvofiqlashtiruvchi rol o'ynaydi. Prezident u yoki bu hokimiyat tarmog'iga kirmaydi, balki butun davlat hokimiyatining birligini namoyon etadi.

Prezident Islom Karimov 2007 yil 11 aprelda "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunga imzo chekdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilgari egallab turgan Vazirlar Maxkamasi raisi lovozimining tugatilishi davlat hokimiyati va boshqaruvini liberallashtirish va demokratlashtirish yo'lida navbatdagi qadam bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda o'tkazilgan qo'shma majlisdagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasi mamlakatimizning demokratik taraqqiyot yo'lidan og'ishmay yanada ildamlab borishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. I.A.Karimov bu erda 6 ta ustuvor yo'nalishlar bo'yicha demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish bobida takliflar berdi.

Shunday qilib, Prezident vakolat muddati o'zgartarildi va unga tegishli ayrim vakolatlar Oliy Majlis Senati va Bosh vazirga o'tkazildi. 2007 yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanini belgilaydigan norma chiqarib tashlandi, davlat boshqaruvida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishga oid, ya'ni Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraktsiyalariga, hukumat dasturlariga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmagan takdirda o'zini muholifat deb e'lon qilishi huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Oliy qonun chikaruvchi hokimiyat (Parlament) har bir davlatda o'ziga hos hususiyatga ega va turlicha ataladi (masalan, AQShda - Kongress, Shvetsiyada - Riksdag, Xitoy Xalq Respublikasida - Xalq vakillari umumxitoy majlisi). O'zbekistonda bunday hokimiyat Oliy Majlis deb nomlanadi. Uning maqomi, tizimi, tuzilishi, vazifalari, ish faoliyatiga oid qoidalarni belgilashda dunyodagi ilg'or davlatlarning va umuman, oliy qonun chiqaruvchi organni tashkil qilish bo'yicha xalqaro tarixiy tajriba chuqur o'rganilgan va inobatga olindi.

O'zbekistonda Oliy Majlis ayni paytda hokimiyatning qonun chiqaruvchi va vakillik organi hisoblanadi, uning tarkibidagi deputatlar xalq mafaatlarini ifodalaydi. Oliy Majlis 5 yil muddatga saylanadi. 25 yoshga etgan O'zbekiston fuqarolari unga saylanish huquqiga ega.

Parlament davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruchi hokimiyatni amalga oshiradi. Parlament qonun bo'yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo'lib, hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to'lgan fuqarolardan saylanadi. Parlamentarizm tajribasi shuni ko'rsatadiki, parlament bir palatali va ikki palatali bo'lishi mumkin. Ma'lumki, demokratik mamlakatlarning aksariyatida parlament ikki palatalidir. XX asrning so'nggi o'n yilligida ikki palatali parlamentlar soni 45 tadan 75 taga ko'paydi. Hozirgi zamonda ikki palatali tizim parlamentarizm taraqqiyotining asosiy tendentsiyasiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Parlamenti 2005 yilga qadar bir palatali bo'lib, uning tarkibida 1990-1994 yillarda 150 deputat, 1995-2004 yillarda 250 deputat faoliyat olib bordi. 2005-2009 yillarda Oliy majlis ikki palatalik bo'lib, uning Qonunchilik palatasi 120 deputat, Senat esa 100 senatordan tashkil topdi. Jami 220 deputdan iborat bo'lib keldi.

Ikki palatali milliy parlamentni tashkil qilish masalasi Prezident Islom Karimov tamonidan 2000 yil 25 mayda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 11-sessiyasida ilgari surildi. "Shuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, hayot o'zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma'naviy ongi ulg'ayishi bilan, bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham tegishli o'zgarishlar bo'lishi tabiiydir. Shu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tish taklifini kiritmoqchiman, ya'ni biz 2004 yil bo'ladigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib tashkil etishimiz lozim"<sup>47</sup>.

Oliy Majlisning 2001 yil 6 dekabrda qabul qilgan O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, 2002 yil 27 yanvarda referendum o'tkazildi. Shu asosdagi "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy

---

<sup>47</sup> Каримов. И.А. Озод ва обод Ватан. эркин ва фаровон ҳаёт- пировард мақсадимиз. Асарлар, 8-жилд. Т., Ўзбекистон, 2000. 483-бет.

Qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

2002 yil 12 dekabrda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 10-sessiyasi halqimizning xohish irodasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunlar hamda ularni amalga oshirish to'g'risida qarorlar qabul qildi. Shuningdek, 2003 yil 24 aprelda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida to'plangan parlamentarizm tajribasi, O'zbekiston xalqining qadriyatlari va mentalitetini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan ushbu qonunlar ikki palatali parlament vakolatlarini va faoliyatining tashkiliy shakllarini aniq belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida xalqaro huquq andozalari va ilg'or horijiy davlatlar talablariga mos yangi saylov qonunchiligi yaratildi. O'zbekistonda saylov qonunchiligi, ya'ni parlament 4 bosqichdan iborat taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Birinchi bosqich. Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunga qadar davr bo'lib, bu davrda O'zbekiston Respublikasi prezidenti saylovi va referendum to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilindi.

Ikkinchi bosqich, Konstitutsiya qabul qilingandan to 1997 yilgacha davom etdi. Bu davrda milliy saylov tizimi shakllandi.

Uchinchi bosqich, 1997 yildan to 2003yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda amaldagi saylov qonunlariga ayrim o'zgartirishlar kiritildi. Markaziy saylov komissiyasi to'risidagi qonun qabul qilindi.

To'rtinchi bosqich, 2003 yildan to 2005 yilgacha bo'lgan davr. Bu davrda ikki palatali parlament shakllantirish bilan bog'liq saylov qonunlariga o'zgartirishlar

kiritildi. 2004 yil 26 dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazildi.<sup>48</sup>

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik (quyi) palatasi deputatlar soni 150 nafar, shundan 135 nafar deputat faqat siyosiy partiyalardan saylanadi. 15 nafar deputat esa O'zbekiston Respublikasi Ekologik harakatidan saylanadi. Vakolat muddati 5 yil, Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional asosda amalga oshiradi va qonunlar ishlab chiqadi.

Qonunchilik palatasi umumiy deputatlari sonining 33 nafari (22 %) xotin-qizlardir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati. Senat so'zi lotincha "Senatus", "sinex" so'zlaridan olingan bo'lib, o'zbekchada "oqsoqol", "mo'ysafid" degan ma'nolarni anglatadi. Senat a'zolarining 15 nafari ayollardan iborat (15 %).

Senatorlar soni 100 nafar. Xalq deputatlari mahalliy kengashlari vakillaridan tashkil topgan yuqori palata – Senat hududiy manfaatlarni ifoda etadi. 84 senat a'zosi Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – 6 kishidan (ya'ni, 14 ta hududdan 6 kishidan), jami 84 nafar deputat saylanadi. 16 senator Prezident tomonidan tayinlanadi:  $84+16=100$  senator.

Xozirgi vaqtda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida:

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston "Adolat" Sotsial-demokratik partiyasi fraktsiyalarining Demokratik bloki tuzilgan va ishlab turibdi. O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi timsolida esa parlament muholifati faoliyat ko'rsatmoqda.

2011 yil 18 aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78,80,93,96 va 98-moddalariga) gi" Qonuni qabul qilindi. 2011 yil 18 aprelda O'zbekiston Prezidenti tomonidan imzolandi va 19 apreldan kuchga kirdi.

<sup>48</sup> Усмонов Қ. Ўзбекистонда парламент таракқиётининг янги босқичи .Т., 2004, 11 – 12 бет.

Natijada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining vakolatlari, Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlariga, Vazirlar Mahkamasi vakolatlariga hamda Bosh Vazirni tayinlash tartibiga hamda vakolatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

İjro etuvchi hokimiyat (Vazirlar Mahkamasi) - davlat hokimiyatining uch asosiy tarmoqlaridan biri.

O'zbekistonda davlat hokimiyatining bo'linish tamoyili mavjud sharoitlarning o'ziga hosligini inobatga olish, jahondagi rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasidan ijodiy foydalanish asosida amalga oshirilmokda. Shunga ko'ra, ijroiya hokimiyat davlat hokimiyati tizimining bir tarmog'i hisoblanadi.

Qonunlar ro'yobga chiqarilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash ijro etuvchi organlarning asosiy vazifasidir. Hokimiyatlar bo'linishi printsipiga muvofiq, ijro etuvchi hokimiyat, ya'ni mamlakat hukumati Vazirlar Mahkamasiga yuklatiladi. Odatda ijroiya hokimiyat parlamentga o'tkazilgan saylovlardan so'ng kamida bir oy ichida shakllantiriladi. Vazirlar Mahkamasining asosiy huquqiy maqomi - uning mustaqil O'zbekiston hukumati ekanidadir. Unga, o'z vakolati doirasida, qonunlarni va Prezident farmonlarini ijro etish masu'liyati yuklangan. Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruv idoralar tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi muassasalariga rahbarlik qiladi.

2007 yilda İslom Karimov ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti egallab turgan Vazirlar Mahkamasi Raisi lovozimining tugatilishi - davlat hokimiyati va boshqaruvini liberallashtirish va demokratlashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Mustakillik yillarida Vazirlar Mahkamasi, ya'ni ijroiya hokimiyat - hukumat tarkibi 4 marta yangidan tasdiqlandi. 2010 yil 12 martda amaldagi Vazirlar Mahkamasi tarkibi belgilandi .

2005 yili Vazirlar Mahkamasi rahbari - Bosh vazir lovozimi joriy etildi. Konstitutsiyaning 89-moddasi birinchi bandidagi Prezidentga tegishli vakolatlar ijroiya hokimiyatga o'tkazildi. Bu holat Frantsiya va Rossiya davlatlari Konstitutsiyalari normalarida ham mavjud. Vazirlar Mahkamasi qonun, farmon,

farmoyish, qaror ijrolarini ta'minlash maqsadida maxsus qarorlar qabul qiladi hamda nazorat yo'li bilan boshqaruvini amalga oshiradi, ijro hokimiyatini ta'minlaydi.

Umuman, xozirgi kunda mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida islohotlar chuqurlashtirilmokda. Oliy Majlisga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi (lot. erk, ihtiyor, hoxish) bildirish huquqi berildi. Vazirlar Mahkamasi vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi Prezident vakolati doirasidan chiqarildi.

Saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan Bosh vazir nomzodining Parlament tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqidagi konstitutsiyaviy tartib belgilanib, hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi (saylovchi tashkilot vakillarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qarorlar) instituti joriy qilindi.

Oliy Majlisga hokimiyat vakillik organlari va tashabbuskor guruhlardan nomzod ko'rsatish instituti tugatildi. Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqi faqat siyosiy partiyalarga berildi. Oliy Majlisga saylovlarni tayinlash instituti tugatildi va uning o'rniga "Saylov kampaniyasi boshlanishini e'lon qilish" instituti joriy etildi. Bu vazifani Markaziy saylov komissiyasi amalga oshiradigan bo'ldi.

Siyosiy partiyalarning vakolatli vakili Qonunchilik palatasiga kiritildi. Bu institut saylov uchastkalarida ovozlarni sanab chiqishda qatnashadi. Unga to'ldirilgan imzo varaqalarini tekshirishda qatnashish huquqi berildi. Oliy Majlis deputatligiga nomzodlarning ishonchli vakili 5 nafardan 10 nafargacha ko'paytirildi.

Deputatlik o'rinlarini kvotalash instituti kiritildi. Ya'ni 15 deputatlik o'rni ommaviy jamoat tashkiloti - O'zbekiston Ekologik harakatiga berildi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining ko'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritilishi, Oliy Majlis palatalari qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lovozimidan ozod etish bo'yicha qaror qabul qilishi, bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqishi borasidagi kiritilgan takliflar ushbu yo'nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga ko'taradi. Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan Bosh vazirning qaror qabul qilishi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiga nomzodlar Bosh vazir tomonidan taqdim etilishi Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazir vakolatlarini oshirib, uning mas'uliyatini kuchaytiradi.

2015 yil 29 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov bo'lib o'tdi.

O'zbekistonning kelajagi uchun katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu saylov respublikaning bozor iqtisodiyoti asosidagi huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida yanada ravnaq topishga sodiqligini tasdiqladi. Saylovlar O'zbekiston fuqarolarining siyosiy faolligi yuksak ekanligini ko'rsatdi. O'z-o'zidan ayonki, ular mamlakatda olib borilayotgan izchil islohotlar yo'lini qo'llab-quvvatladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga 4 partiya vakillari o'z nomzodlarini tavsiya qilishdi.

1. O'zbekiston Liberal – demokratik partiyasi (O'zLiDeP) Islom Abdug'anievich Karimov nomzodini Prezidentlikka munosib ko'rib tavsiya qilishdi.

2. «O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zbekiston XDP)»dan Hotamxon Abduraxmanovich Ketmonov nomzodi ko'rsatildi.

3. O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (O'zMTDP) Akmal Holmatovich Saidovning nomzodini tavsiya etdi.

4. O'zbekiston «Adolat» sotsial – demokratik partiyasi («Adolat» SDP) esa, Nariman Majitovich Umarovning nomzodini tavsiya qilishdi.

2015 yil 7 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi saylov okruglarini tuzish to'g'risida Markaziy saylov komissiyasining Qaror e'lon qilindi. Qarorga binoan O'zbekiston bo'yicha 14 ta saylov okrugi tashkil etildi<sup>49</sup>.

Saylovlar ochiq, oshkora olib borildi. O'zbekiston xalqi siyosiy madaniyatligini ko'rsatdi.

Saylov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunlarga muvofiq fuqarolarning o'z hoxish-irodasini erkin bildirish huquqini ta'minlagan hamda umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish tamoyillariga roiya qilingan holda bo'lib o'tdi.

Saylovning ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashda ommoviy axborot vositalari nihoyatda muhim o'rin tutadi. Prezident saylovini mamlakatimizning qariyb 600 ta hamda 180 dan ziyod horijiy ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, qariyb 180 ta horijiy va milliy internet nashri yoritib bordi. Mamlakatimiz hamda chet elning 980 nafardan ziyod jurnalistlari ishtirok etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq 12 ming 750 dan ortiq maqola va axborot materiallari, ko'rsatuv hamda eshittirishlar e'lon qilindi.<sup>50</sup>

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalaridan kelgan bayonnomalarga asosan 2015-yil 29-mart kuni bo'lib o'tgan saylovda saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 20 million 798 ming 52 nafar saylovchidan 18 million 942 ming 349 nafari ovoz berishda ishtirok etganini aniqladi. Bu saylovchilar umumiy sonining 91,08 foizini tashkil qiladi.

Saylov natijalari ko'rsatganidek, ushbu muhim tadbirda ishtirok etgan saylovchilarning 17 million 122 ming 597 nafari yoki 90,39 foizi tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal Demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Islom Abdug'anievich Karimovni yoqlab ovoz berdi. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Akmal Holmatovich Saidovga 582 ming 688 nafar yoki 3,08 foiz saylovchi, O'zbekiston Xalq

<sup>49</sup> Xalq s'zhi. 2015 йил 8 январь, № 4 (6187) // Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловини ўтказувчи сайлов округларини тузиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг Қарори.

<sup>50</sup> Xalq s'zhi. 2015 йил 7 апрель, № 68 (6251) // Қобул Хидиров "Халқ сўзи" мухбири.

demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Hatomjon Abduraxmanovich Ketmonovga 552 ming 309 nafar yoki 2,92 foiz saylovchi, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Norimon Majitovich Umarovga 389 ming 24 nafar yoki 2,05 foiz saylovchi ovoz berdi<sup>51</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90, 117 – moddalariga, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovga to'g'risida"gi Konunning 14, 35, 36 – moddalariga, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi Qonunning 5, 9 – moddalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug'anievich Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lovozimiga saylangan deb hisoblash to'g'risida qaror qabul qildi<sup>52</sup>.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari to'g'risida Markaziy saylov komissiyasi Raisi M.Abdusalomov tomonidan 2015 yil 6 aprel kuni Qaror e'lon qilindi. Qarorda e'lon qilinishicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib Islom Abduganievich Karimov saylandi.

Quyida 2015 yil 29 mart kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari to'g'risidagi Markaziy saylov komissiyasi Raisi M.Abdusalomovning Qarori matnini keltirishni lozim topdik:

2015 yil 29 mart kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qarori<sup>53</sup>

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90, 117-moddalari, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14, 35, 36-moddalari, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5, 9-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalari va O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida tuzilgan uchastka saylov komissiyalaridan olingan ovoz

<sup>51</sup> Халқ сўзи. 2015 йил 7 апрель, № 68 (6251) // Қобул Хидиров "Халқ сўзи" мухбири.

<sup>52</sup> Халқ сўзи. 2015 йил 7 апрель, № 68 (6251) // Қобул Хидиров "Халқ сўзи" мухбири.

<sup>53</sup> Халқ сўзи. 2015 йил 7 апрель, № 68 (6251) // Ўзбекистон Республикаси Президенти сайлови натижалари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг Қарори.

berish natijalari to'g'risidagi bayonnomalar asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi

### QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq haqiqiy va bo'lib o'tgan deb topilsin.

2. Islom Abdug'anievich Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lovozimiga saylangan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinsin.

Markaziy saylov komissiyasi Raisi

M. ABDUSALOMOV

Toshkent shahri,

2015 yil 6 aprel`

Ushbu xabarni barcha O'zbekiston xalqi quvonch bilan kutib oldi.

Saylov yuqori uyushqoqlik bilan o'tdi. Nafaqat O'zbekiston xalqi, balki dunyoning barcha mamlakatlari xalqlari va nufuzli tashkilotlari O'zbekistonda bo'lib o'tgan saylovlarga befarq emasliklarini bildirishdi.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining Londondagi elchixonasida O'zbekiston Prezidenti saylovining yakunlariga bag'ishlangan brifingda Markaziy Osiyo bo'yicha Kembrij forumining raisi, professor S. Saksena saylovlar kuni mamlakatimizning Buxoro viloyatidagi saylov uchastkalarida o'z missiyasini bajarganini ma'lum qildi.

— Ovoz berish jarayoni yuksak darajada tashkil etildi, — deya bayonot berdi u. — Xalqaro tashkilotlar missiyalari va boshqa xalqaro kuzatuvchilar tomonidan berilgan yuqori baholar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Saylovchilar O'zbekistonda qo'lga kiritilgan ro'y-rost va aniq-ravshan muvaffaqiyatlarga asoslanib,

mamlakatining kelajakda ham barqaror rivojlanishda davom etajagiga ishongan holda o'z xohish-irodalarini bildirishdi.

Britaniya — O'zbekiston jamiyati raisining o'rinbosari, doktor Shirin Akiner o'z chiqishida tadbir ishtirokchilari e'tiborini O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yillari davomida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlariga qaratdi. Uning fikricha, ana shu yutuqlar bilan jahon hamjamiyatini yanada kengroq tanishtirish zarur. «Missiyam doirasida qator o'quv muassasalarida, shu jumladan, ta'lim jarayonlari ingliz tilida olib boriladigan Turin politexnika universiteti va Singapur menejmentni rivojlantirish instituti singari Toshkentdagi xorijiy oliy o'quv yurtlarining filiallarida bo'ldim. Talabalar bilan muloqot chog'ida ularning dunyoqarashi kengligini, ijodiy salohiyati katta ekanligini payqash sira qiyin emas edi. O'zbek talabalarining kelajakka aloqador rejalari, ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqidagi mulohazalaridan ham bildimki, ular o'z mamlakatining izchil rivojlanishi davom etishi uchun saylovda yuksak daxldorlik tuyg'usi bilan qatnashdilar2,- dedi Sh. Akiner.

Tadbirdan so'ng «Jahon» axborot agentligiga bergan interv'yusi chog'ida Britaniyadagi «Pathfinder Trade and Investment» kompaniyasi raisi va bosh ijrochi direktori Maykl Tomas ham mazkur siyosiy tadbir tashkiliy jihatdan va mazmunan juda muvaffaqiyatli kechganini aytdi. — Biz saylovchilarning yuqori darajadagi faolligiga guvoh bo'ldik, — dedi u. — Mamlakatingiz fuqarolari erkin va oshkoralik muhitida ovoz berdilar. O'zbekistonga missiyam doirasida Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universitetiga bordim. U erda o'qituvchi va talabalar bilan suhbatlashgan chog'imda mamlakatingiz oliy ta'lim tizimida Britaniya andozalariga o'xshash jihatlar ko'pligiga, shuningdek, o'zbek talabalari britaniyalik tengdoshlaridan aslo qolishmasligiga amin bo'ldim. — Men O'zbekistonga Prezident saylovini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish maqsadida bordim, — dedi «Earth Times» onlayn-gazetasi muharriri David Armstrong. — Saylov yuqori darajada tashkil etildi. Shu o'rinda ovoz berish jarayoni raqobatchilik ruhida kechganiga, xolislik va shaffoflik muhitida o'tganiga guvoh bo'lganimni qayd etishni istar edim. Islom Karimovning ushbu saylovdagi

g'alabasi uning davlat rahbari lovozimida ishlagan kezlari mamlakatda qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarning e'tirof etilganidan dalolat beradi<sup>54</sup>.

Shunday qilib O'zbekistonda Prezident boshqaruvi tashkil etilgan.

Parlament boshqaruvi masalasida esa, tegishli qonun-qoidalar, qonun osti hujjatlari qobul qilinib, O'zbekiston soylovlarin tashkil etish va o'tkazish masalasida xalqaro talab va normalarga javob beradi.

Shu bilan birga davlatda ku`ppartiyaviylik hukm surmokda. Bu ham O'zbekistonda demokratik tamoyillarning bajarilayotganligining bir ko'rinishidir.

---

<sup>54</sup> Қаранг.: Интернет сайт – E-mail:info@xs.uz. // Ўзбекистон Республикасининг Лондондаги элчихонасида Ўзбекистон Президенти сайловининг якунларига багишланган брифинг ҳақида.

### **III-Bob. Saylov jarayonlarining olib borilishi**

**2014, 2015 yillar**

#### **3.1. O'zbekistonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar haqida ma'lumotlar, fikr va mulohazalar**

2014-2015 yillar O'zbekiston davlatchiligi tarixida, shu bilan birga, mustaqillik davri tarixida katta siyosiy voqealarga boy yil bo'ldi.

Mustaqillik yillarida xalqimizning o'z xohish – irodasini erkin ifoda etishini ta'minlovchi saylov tizimi shakllandi va qonun bilan mustahkamlandi.

Jumladan, dunyoda eng rivojlangan demokratik davlatlarda ham O'zbekistonda qabul qilingan «Saylovchilar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunga o'xshash qonunlar yo'q. Saylov tizimi davlatning demokratik yoki demokratik emasligini ko'rsatuvchi asosiy omildir.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Yaxshi bilamizki, demokratiya, demokratik jamiyatning bosh talabi — bu odamlarning o'z xohish – irodasini erkin ifoda etish, saylash va saylanish huquqini ta'minlashdan iborat. Eng muhimi, saylovlar xalqimizni parokanda va bir – biriga qarshi qilishga emas, balki elu yurt yo'lida yanada birlashtirishga xizmat qilishi zarur».<sup>1</sup>

Dastlab mamlakatda saylov tizimini yo'lga qo'yishning asoslari yaratildi. Saylovlar haqida, saylov o'tkazish tartiblari to'g'risida bir qator qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilindi.

2014 yil kuzidan boshlab, O'zbekistonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo'yicha saylov kampaniyasi boshlangani e'lon qilindi.

Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida o'tkazilayotgan mazkur siyosiy tadbir xalqaro hamjamiyatning diqqat-e'tiborida turdi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalari tomonidan

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, ularning natijalari, davlat hokimiyati va boshqaruvi hamda saylov qonunchiligini erkinlashtirish va liberallashtirish borasida so'nggi yillarda ro'yobga chiqarilgan yangiliklar xususida turli tadbirlar tashkil qilinda.

Xususan, Ozarbayjon, Bel'giya, Hindiston, Latviya, Malayziya, AQSh, Turkiya va Yaponiya singari davlatlarda ommaviy axborot vositalari uchun maxsus brifinglar tashkil etildi. Mazkur tadbirlarda chet ellik jurnalistlar yurtimizda saylov qonunchiligiga muvofiq o'tkaziladigan parlament saylovlariga tayyorgarlik jarayoni bilan tanishdilar. Ularning e'tiboriga so'nggi yillarda Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi doirasida O'zbekistonning siyosiy, davlat va huquq tizimini izchil hamda bosqichma-bosqich tarzda modernizatsiya qilish borasida olib borilayotgan ishlarning natijalari yuzasidan batafsil axborot taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar mavzusi nufuzli xorij ommaviy axborot vositalarida keng yoritilda. Bu ham dunyo jamoatchiligining mamlakatimizda bo'lib o'tadigan ushbu muhim siyosiy voqeaga qiziqishi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Jumladan, «Diplomat» (Buyuk Britaniya), «The Korea Post» (Koreya Respublikasi), «Al-Aklam va al-Kutub» (Misr), «Lyaovan» (XXR) jurnallari, «The Korea Times» (Koreya Respublikasi), «Japan Times» va «Japan Neo's» (Yaponiya), «Berita Harian» (Malayziya), «Election Times» (Pokiston), «Dunfan Tszaobao» (Xitoy), «Bakinskiy rabochiy» (Ozarbayjon), «Vesti» (Isroil), «Kazaxstanskaya pravda» (Qozog'iston) gazetalar va boshqa davriy nashrlarda joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan parlament saylovlariga bag'ishlangan maqola va materiallar chop etildi. «Trend» (Ozarbayjon), «Baltic Neo's Service» (Latviya) axborot agentliklari, «Jen`min`van» (Xitoy), «Sarkaritel» (Hindiston) elektron portallari ham o'z o'quvchilarini O'zbekistondagi saylovlarning davlat va jamiyat hayotini yanada liberallashtirish va

demokratlashtirishdagi o'zni hamda ahamiyati bilan tanishtirishga alohida e'tibor berildi.

«Prezident Islom Karimov tomonidan parlament palatalarining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisida ilgari surilgan Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasini hayotga tatbiq etish doirasida so'nggi yillarda Konstitutsiya hamda saylov to'g'risidagi qonunlarga hokimiyatning qonunchilik va ijro tarmoqlari faoliyatini, saylov tizimini yanada demokratlashtirish uchun huquqiy asos sifatida xizmat qiladigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi, — deb yozadi Xitoyning «Dunfan Tszaobao» gazetasi. — Saylov qonunchiligiga saylovoldi tashviqotining shakl va usullarini aniq belgilash, saylov kuni va ovoz berish boshlanishiga bir kun qolganida uni o'tkazishga yo'l qo'ymaslik, deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalarni saylov kampaniyasining eng muhim bosqichida teng sharoitlar bilan ta'minlash, muddatidan oldin ovoz berishni o'tkazish bo'yicha qo'shimcha huquqiy kafolatlar, qamoqda saqlash joylarida saylov uchastkalarini tashkil qilishga doir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Saylov davomida oshkoralikni ta'minlashning huquqiy mexanizmlari takomillashtirildi.

Barcha saylov komissiyasi faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi ularning siyosiy partiyalar vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari va kuzatuvchilar ishtirokidagi yig'ilishlarini o'tkazish orqali ta'minlandi. Kuzatuvchilar va siyosiy partiyalar vakillari bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlar va chet davlatlardan ham kuzatuvchilarning ishtirok etishi ko'zda tutildi».

Malayziyaning «Berita Harian» nashrida qayd etilganidek, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan kiritilgan muhim o'zgarishlardan biri muddatidan oldin ovoz berishni o'tkazish bo'yicha huquqiy kafolatlarni ta'minlash bo'lib, ular saylovlarning adolat va shaffoflik tamoyillariga muvofiq o'tkazilishini kafolatlaydi. Yana bir muhim yangilik saylovoldi tashviqotini saylov kuni va ovoz berish boshlanishiga bir kun qolganida o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'lib, bu saylovlar jarayonida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini mustahkamlaydi».

O'zbekistonda parlamentarizm sohasidagi islohotlar haqida «Baltic Neo's Service» (Latviya) axborot agentligi ham quyidagicha ma'lumot beradi: «Siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarga saylov kampaniyasi mobaynida teng sharoitlar va imkoniyatlar yaratishga, fuqarolar saylov huquqini ishonchli ta'minlash, ularning o'z xohish-istagini erkin bildirishi, saylov komissiyalari faoliyatining oshkoraligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qator qonunlar takomillashtirildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda samarador va demokratik saylov tizimini shakllantirish hamda rivojlantirish sohasida chuqur islohotlar o'tkazildi. 2003 va 2008 yillarda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida», «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunlarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi».

«The Korea Post» (Koreya Respublikasi) jurnalida ta'kidlanishicha, saylovlar demokratik huquqiy davlatning ajralmas xususiyati, xalqning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishining asosiy shaklidir. Saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari — quyi darajadagi o'zini o'zi boshqarish tizimining an'anaviy demokratik tizimi bo'lmish mahallalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jurnalda bu xususda quyidagilar keltiriladi:

«Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan farqli ravishda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlarni ilgari surish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov bo'yicha uchastka saylov komissiyalarining a'ziligiga nomzodlarni tegishli okrug saylov komissiyalariga taqdim etish huquqiga egadirlar<sup>55</sup>».

---

<sup>55</sup> Интернет сайт – E-mail: info@xs.uz. // «Жаҳон» АА.

2014 yil dekabr, yanvar oylarida O'zbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga Saylovlar bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi muntazam ravishda ishlab turdi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11 va 48-moddalariga muvofiq, 2015 yil 4 yanvarda 22 ta saylov okrugida bo'lib o'tgan takroriy ovoz berish natijalarini inobatga olgan holda mamlakat parlamenti Qonunchilik palatasi saylovi yakunlandi<sup>56</sup>.

Markaziy saylov komissiyasi raisi M. Abdusalomov qayd etganidek, saylov amaldagi saylov to'g'risidagi qonun hujjatlariga, unda mustahkamlab qo'yilgan ochiqlik, oshkoralik va muqobillik tamoyillariga hamda demokratik printsiplarga to'la muvofiq holda o'tkazilgan.

2014 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tadbirlar dasturida ko'zda tutilgan tashkiliy-huquqiy tadbirlarning izchil amalga oshirilgani bunga ko'p jihatdan imkon bergan. Qonun hujjatlarida belgilangan qoida va talablar barcha uchun bir xil va majburiy ekanligiga saylov kampaniyasi davrida to'liq va og'ishmay amal qilingan.

Siyosiy partiyalarning keskin raqobati natijasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov bo'yicha 22 ta saylov okrugida nomzodlarning birontasi ham saylanish uchun zarur ovozlarni to'play olmadi. Shu munosabat bilan 2015 yil 4 yanvar kuni ushbu okruglarda takroriy ovoz berish o'tkazilgan. Takroriy ovoz berishda saylovchilar ro'yxatiga familiyalari kiritilgan 3 million 434 ming 345 nafar saylovchidan 2 million 642 ming 63 nafar saylovchi ishtirok etgan va bu

<sup>56</sup> Интернет сайт – E-mail:info@xs.uz. // Қобил Хидиров. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг мажлиси бўлиб ўтди. Мажлисида “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайлов тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 11 ва 48-моддаларига мувофиқ, 2015 йил 4 январда 22 та сайлов округида бўлиб ўтган такрорий оvoz бериш натижаларини инобатга олган ҳолда мамлакат парламенти Қонунчилик палатаси сайлови якунлари кўриб чиқилди.

ro'yxatga kiritilgan saylovchilar umumiy sonining 76,9 foizini tashkil qilgan<sup>57</sup>. Takroriy ovoz berish milliy saylov qonunchiligining barcha qoidalariga muvofiq umume'tirof etilgan xalqaro standartlar asosida ochiq va oshkora o'tkazilgan.

Tegishli okruglarda deputatlikka nomzodlar saylovoldi tashviqotini olib borish va bu maqsadda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan to'liq foydalana olgan. Takroriy ovoz berishda siyosiy partiyalarning 5700 dan ortiq kuzatuvchilari va vakolatli vakillari ishtirok etgan.

Markaziy saylov komissiyasiga kelib tushgan okrug saylov komissiyalarining takroriy ovoz berish natijalari haqidagi bayonnomalari asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 22 nafar deputati ro'yxatga olingan.

Shunday qilib, 135 ta saylov okrugining barchasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi yakunlangan.

Shu kuni 2014 yilgi saylovlarni yoritish bo'yicha Respublika matbuot markazida mamlakatimiz va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov yakunlariga bag'ishlangan brifing bo'lib o'tgan.

Markaziy saylov komissiyasi raisi brifing qatnashchilariga ma'lum qilganidek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi natijalariga ko'ra, parlament quyi palatasiga 150 nafar deputat saylangan.

Shu jumladan, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 52 nafar;

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 36 nafar;

---

<sup>57</sup> Qarang.: Интернет сайт – E-mail:info@xs.uz. // Қобил Хидиров. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг мажлиси бўлиб ўтди. Мажлисида “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисида сайлов тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 11 ва 48-моддаларига мувофиқ, 2015 йил 4 январда 22 та сайлов округида бўлиб ўтган такрорий овоз бериш натижаларини инобатга олган ҳолда мамлакат парламенти Қонунчилик палатаси сайлови якунлари кўриб чиқилди.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 27 nafar;

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan 20 nafar deputat saylandi.

15 nafar deputat O'zbekiston ekologik harakatining vakilidir. Saylangan deputatlarning 24 nafari yoki 16 foizi xotin-qizlardir.

Saylangan deputatlarning 40 nafari yoki 27 foizi ilgari Qonunchilik palatasi deputati bo'lgan<sup>58</sup>.

Bu ularning o'z saylovchilari ishonchiga sazovor bo'lganligi tasdig'i bo'lib, parlament quyi palatasi professional faoliyatida ularning tajribasi va qonun ijodkorligi borasida amaliy ko'nikmalaridan yanada samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Shuni qayd etish kerakki, Oliy Majlis quyi palatasi tarkibida jamiyatning deyarli barcha qatlamlari vakillari bor. Saylov jarayoni ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashda ko'p jihatdan ommaviy axborot vositalari, mahalliy va xorijiy kuzatuvchilarning faoliyati katta omil bo'lib xizmat qildi. Saylov jarayonini 550 dan ortiq mahalliy va 120 dan ziyod xorijiy ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, 180 dan ortiq internet-nashrlar yoritib bordi. Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq 9 mingdan ortiq materiallar e'lon qilindi.

Saylovni kuzatishda beshda halqaro tashkilot<sup>59</sup>:

- Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi;

<sup>58</sup> Qarang.: Интернет сайт – E-mail:info@xs.uz. // Қобил Хидиров. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг мажлиси бўлиб ўтди. Мажлисида "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайлов тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 11 ва 48-моддаларига мувофиқ, 2015 йил 4 январда 22 та сайлов округида бўлиб ўтган такрорий овоз бериш натижаларини инobatга олган ҳолда мамлакат парламенти Қонунчилик палатаси сайлови яқунлари кўриб чиқилди.

<sup>59</sup> Qarang.: Интернет сайт – E-mail:info@xs.uz. // Қобил Хидиров. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг мажлиси бўлиб ўтди. Мажлисида "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайлов тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 11 ва 48-моддаларига мувофиқ, 2015 йил 4 январда 22 та сайлов округида бўлиб ўтган такрорий овоз бериш натижаларини инobatга олган ҳолда мамлакат парламенти Қонунчилик палатаси сайлови яқунлари кўриб чиқилди.

- Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi;
- Shanhay hamkorlik tashkiloti;
- Butinjahon saylov organlari assotsiatsiyasi;
- Islom hamkorlik tashkiloti.

Shu bilan birga, Amerika, Evropa, Osiyo va Afrikaning 52 davlatdan 340dan ziyod nafar kuzatuvchi ishtirok etgani saylov komissiyasi demokratik ruxda, ochiq va shaffof o'tganiga yana bir yorqin dalildir. Qonunchilikka muvofiq, siyosiy partiyalardan 70 mingdan ortiq kuzatuvchilar va vakolatli vakillari qatnashdi, saylov jarayonlarida monitoring olib bordi<sup>60</sup>.

Barcha bo'g'indagi saylov komissiyalari mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlilik tamoyillari asosida faoliyat olib borgani saylovlarning umume'tirof etilgan demokratik printsiplar, mamlakatimiz saylov qonun hujjatlariga qat'iy amal qilingan holda o'tkazilishida hal qiluvchi omil bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga bo'lib o'tgan saylovda xalqimiz O'zbekiston tanlagan demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo'liga sodiqligini yana bir karra namoyon etdi<sup>61</sup>.

---

<sup>60</sup> Қаранг.: Интернет сайт – E-mail:info@xs.uz. // Қобил Хидиров. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг мажлиси бўлиб ўтди. Мажлисида “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайлов тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 11 ва 48-моддаларига мувофиқ, 2015 йил 4 январда 22 та сайлов округида бўлиб ўтган такрорий овоз бериш натижаларини инобатга олган ҳолда мамлакат парламенти Қонунчилик палатаси сайлови яқунлари кўриб чиқилди.

<sup>61</sup> Қаранг.: Интернет сайт – E-mail:info@xs.uz. // Қобил Хидиров. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг мажлиси бўлиб ўтди. Мажлисида “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайлов тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 11 ва 48-моддаларига мувофиқ, 2015 йил 4 январда 22 та сайлов округида бўлиб ўтган такрорий овоз бериш натижаларини инобатга олган ҳолда мамлакат парламенти Қонунчилик палатаси сайлови яқунлари кўриб чиқилди.

Shunday qilib, Parlament boshqaruvi, saylovlarni tashkil eti shva o'tkazish masalasida ohirgi ikki yil siyosiy voqealarga boy bo'ldi. Davlat bu masalada xalqaro talablarga jabob bera oladigan davlat ekanligini xalq esa o'zining tinichliksevar, bag`rikeng siyosiy madaniyatli ekanligini ko'rsatdi.

### **3.2. O'zbekistondagi saylovlar haqida ekspertlarning fikr va mulohazalari**

O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, inson va uning manfaatlari ustuvor bo'lgan kuchli hamda adolatli fuqarolik jamiyatni barpo etish, taraqqiy topgan davlatlar qatoridan joy olishdek strategik maqsadlarimiz ro'yobida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni ayniqsa, siyosiy partiyalar va deputatlikka nomzodlarning keng ko'lamli saylovoldi tashviqotida, fuqarolarning siyosiy partiyalar saylovoldi platformalari maqsad va vazifalarini sinchiklab o'rganish jarayonida aniq bo'ldi.

Saylovlar mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishning yangi bosqichida, yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda bo'lib o'tdi.

Zero, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Kontsepsiyasi qoidalarining hayotga izchil tadbiq etilishi natijasida O'zbekistonda saylov tizimini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirdi.

Hususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasiga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlarga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasini demokratik asosda shakllantirish tizimini va uning asosiy faoliyat printsiplari Konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlandi, hokimiyatning vakillik organlariga saylovlarni tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan saylov organlari butun tizimi mustaqilligining kafolatlari kuchaytirildi.

Saylov qonunchiligiga kiritilgan, saylash erkinligi va o'z hoxish irodasini erkin bildirish borasidagi konstitutsiyaviy tamotsilini amalga oshirishga qaratilgan yangiliklar saylovini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini va milliy saylov qonunchiligi hamda xalqaro demokratik standartlar talablariga to'la mos tarzda o'tkazish imkonini beradi. Qontsepsiya asosida qonunchilik sohasida olib borilgan ishlar natijasida davlat hokuimiyati organlari tizimida Oliy Majlisning roli va ahamiyati sezilarli darajada kuchaytirilgani davlatimizning ichki va tashqi

siyosatini shakllantirish hamda amalga oshirishda mamlakatimiz Oliy Qonunchilik organining imkoniyatlari kengaytirilganligini alohida qayd etish lozim.

Ayni paytda hukumatning Parlament oldida, joylardagi davlat boshqaruvi organlarining xalq deputatlari Kengashlari oldidagi mas'uliyati oshirildi.

Shu va boshqa saylovga tegishli masalalar xalqaro standartlar asosida amalga oshirildi.

Mazkur masalada chet ellik ekspertlarning fikr va mulohazalari juda zarur. Chunki, xalqaro darajadagi mutaxassislarning bahosi davlatning rivojlanish darajasini bildiradi. Shuning uchun ham ularning fikri muhim hisoblanadi.

Biz ularni shartli ravishda uchga bo'lishni lozim topdik:

**Birinchisi** - xalqaro darajada faoliyat yuritayotgan ekspertlarning fikr va mulohazalari;

**Ikkinchisi** – alohida, o'zi yashayotgan davlatda ijtimoiy-siyosiy masalalar bo'yicha monitoring olib borayotgan ekspertlar guruhining fikrlari;

**Uchinchisi** – O'zbekiston fuqarolarining fikrlari.

**Birinchisi** - xalqaro darajada faoliyat yuritayotgan ekspertlarning fikr va mulohazalari. Ulardan bir nechtasini misol tariqasida keltiramiz.

Shanxay xalqaro tadqiqotlar instituti Rossiya va O'rta Osiyoni o'rganish bo'yicha markazi professori, Xalqaro iqtisodiyotni o'rganish instituti direktori (Xitoy) Li SIN esa, ko'p yillardan buyon O'zbekiston bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgalligi, xalqimizning bugungi ozod va obod, tinch va farovon hayotga qanday mashaqqatlar bilan erishgani, ushbu saylov yuqori saviyada o'tib, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishiga ishonishi haqidagi fikrlari diqqatni tortadi.

Xalqaro aloqalar bo'yicha Evropa instituti doktori (Bel'giya) P'er-Emmanuel Tomann esa, O'zbekistonga har kelganimda bir yangilik guvohi bo'laman. Bu safar ham qadimiy Xorazm, ayniqsa, go'zal va tarixiy Xivani ko'rishga muyassar bo'lganimdan baxtiyorman. Xiva kitoblarda o'qiganimdek go'zal, ochiq osmon ostidagi muzey shahar ekan. Saylov uchastkalarining infratuzilmasi juda yaxshi ekanini aytilish joiz. Tibbiyot, onalar va bolalar xonalari, qariyalar burchagini hech

qaysi davlatda uchratmaganman. Bu men kabi geosiyosatchi uchun ajoyib yangilik bo'ldi,-deydi.

“Fukuoka-O'zbekiston” do'stlik uyushmasi prezidenti, Fukuoka shahri saylov qo'mitasi a'zosi (Yaponiya) Masaru Nakamura - «O'zbekiston saylov tizimida o'rnak olsa arzigulik ko'plab jihatlarni ko'rdim. Saylov uchastkalarida saylovchilar va kuzatuvchilar uchun yaratilgan qulayliklar, zarur uskunalar bilan jihozlangan tibbiyot, ona va bola xonalari hamda boshqa shart-sharoit bunga yorqin misoldir. Saylovni kuzatish asnosida yana bir jihat e'tiborimni tortdi. Saylovga kelish imkoni bo'lmagan keksa va bemor kishilarning turgan joyiga maxsus qutilar olib borilgani mamlakatingizda inson manfaatlari, saylov huquqlarini ta'minlashga katta e'tibor qaratilishining yana bir yorqin ifodasidir», - deydi.

Xitoy Xalq Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining elchisi Gao Yuysen — Dunyoning ko'plab davlatlarida saylov jarayonlarini kuzatganman. O'zbekistonda ovoz berish tartibi, ulardan farqli ravishda, muayyan afzalliklarga ega. Saylov yuksak saviyada tashkil etilgani, ushbu jarayonda milliy va xalqaro huquq normalariga rioya etilganidan tashqari, har bir saylov uchastkasida tibbiyot xonasi tashkil etilganini ham ta'kidlamoqchiman. Ota-onalar ovoz berayotganda ularning farzandlari ona va bola xonalarida mutaxassislar qarovida bo'ldi.

Salomatligi tufayli saylov uchastkasiga kela olmagan va yoshi ulug' fuqarolar o'z uylarida ovoz berish imkoniga ega bo'lgani ham e'tiborga loyiqdir. Bu har bir fuqaroga o'z huquqlarini to'liq amalga oshirishga yordam berdi,- deb fikrini bildiradi.

Xalqaro kuzatuvchi (Rossiya) Evgeniya Maxmutova – Navoiy viloyatida erta tongdan boshlangan siyosiy jarayonlarni kuzatib, uchastka saylov komissiyalarining tayyorgarligi, saylovchilarning kayfiyati ko'tarinkiligi, ayniqsa, birinchi marta ovoz berayotgan yoshlardagi o'zgacha qiziqish va hayajonni ko'rdim. Eng muhimi, saylov ochiq-oshkora, yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tmoqda. Har kim o'zi munosib deb bilgan nomzodni saylamoqda. Bu xalqaro talablarga to'la mos keladi va hech qanday shubhali holatlarni uchratmadim. Ilk marta saylovda ishtirok etayotgan yoshlarning ushbu siyosiy tadbir mamlakat taqdiri uchun naqadar muhim ekani xususidagi

fikrlarini eshitib, ularning bilimi, mas'uliyatni his etishi, eng muhimi, yuz-ko'zida ufurib turgan ishonch va qat'iyatdan juda hayratlandim,- deydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini kuzatish uchun mamlakatimizga kelgan xalqaro kuzatuvchilar saylov xalqaro normalar va demokratik tamoyillar asosida o'tayotganini ta'kidladilar

Yaponiya tibbiyot uskunalari sohasida tashqi texnik ko'mak tashkiloti prezidenti, "Matsumoto" jamg'armasi raisi, Kenichi Matsumoto — Toshkent shahridagi 158-saylov uchastkasidagi ovoz berish jarayonini kuzatdim. Uchastka demokratik tamoyillarga mos jihozlangani, saylovchilar ushbu muhim siyosiy tadbirda faol ishtirok etgani quvonarli.

Aytish joizki, demokratiyaning barcha davlatlarda bir xil joriy etilishi lozim bo'lgan universal modeli yo'q. Har bir tizim muayyan xalqning manfaati, madaniyati, an'ana va urf-odatlarini, mamlakatning jo'g'rofiy-tarixiy sharoitini hisobga olgan holda joriy etilsa yuksak samara beradi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, jumladan, saylov tizimi xalqaro andozalar va demokratik davlatlarning ilg'or tajribasi, xalqning an'anaviy qadriyat va qarashlarini mujassamlashtirgani bilan ham diqqatga sazovordir. Menimcha, saylovlar huddi O'zbekistondagidek erkin, adolatli, ochiq va oshkora, tartibli va osoyishta o'tishi lozim. Zero, tinchlik va osoyishtalik taraqqiyot va farovonlikning asosi hisoblanadi. O'zbekistonda jismonan chiniqqan va ma'nan etuk avlodni kamol toptirishga qaratilayotgan e'tibor, bu yo'lda olib borilayotgan sa'y-harakatlarni yuksak baholayman,-deb o'z fikrini bildiradi.

MDH va Sharqiy Evropa mamlakatlari instituti direktori, Saylov tizimlarini o'rganish bo'yicha xalqaro markaz prezidenti (Isroil) Aleksandr Tsinker — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rilganiga guvoh bo'ldik. Saylov tizimining zamon talablari asosida shakllangani, bu borada xalqaro normalarga javob beradigan qonunlar ishlab chiqilib, hayotga joriy etilayotgani mamlakatingizning ulkan yutug'idir. Saylovchilarning erkin, yashirin ovoz berishi uchun barcha sharoit yaratildi. Buni men Toshkent shahridagi bir qancha saylov uchastkalari misolida ko'rdim. Yana bir jihat e'tiborimni tortdi:

saylov uchastkasiga kelish imkoniga ega bo'lmagan kishilarning uyiga maxsus ko'chma qutilar olib borilar ekan. Bu xalqingizga xos insonparvarlik va bag'rikenglik, saylov tizimidagi tenglikning yana bir ifodasidir. O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasiga qaratilayotgan e'tibor tahsinga loyiq. Mamlakatingizning yoshlarga oid davlat siyosati boshqalar uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin. Yoshlarning keksalarga ko'rsatayotgan hurmat va ehtiromidan hayratlandim. Odamlarning bir-biriga go'zal muomalasini ko'rib, xalqingizning madaniyatiga havas qildim. Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi qadimiy shaharlardagi me'moriy obidalarni ziyorat qilish baxtiga muyassar bo'lganman. Mamlakatingizda ajdodlaringizning boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, shahar va qishloqlar infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar o'z samaralarini bermoqda-deb o'z fikrini bildirdi.

“Vektor” strategik tadqiqotlar xalqaro institutining bosh direktori (Rossiya) Andrey Xrienko — Saylov kuni erta tongda Toshkent shahridagi 160-saylov uchastkasiga borganimda, u er allaqachon saylovchilar bilan gavjum ekan. Fuqarolarning bunday faolligi ularning Vatan ravnaqi va xalq farovonligiga o'zini daxldor sezishini ko'rsatib turibdi. O'zbekistonda Prezident sayloviga tayyorgarlik borasida o'rnak olsa arzigulik jihatlar ko'p. Saylov uchastkalarida saylovchilar va kuzatuvchilar uchun yaratilgan qulayliklar, yuksak darajadagi shart-sharoit bunga yorqin misoldir. Buning samarasida saylovchilarning ovoz berish huquqlari to'la ta'minlandi. O'zbekiston izchil rivojlanayotgan mamlakat. Mustaqillikning ilk yillarida tanlangan O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li — “o'zbek modeli” bugungi kunda yuksak samaralar bermoqda. O'zbekistonda ijtimoiy sohalarda, xususan, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar e'tiborga molik. Mamlakatingizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimi natijasida yuksak bilim va malakaga ega mutaxassislar tayyorlashning samarali mexanizmi yaratilgan. Ayniqsa, kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga havasim keladi. Ularda yoshlarning kamida ikkita kasbni egallashi, bitiruvchilarning ish joyi oldindan tayin bo'lishi O'zbekistonda yoshlar masalasiga katta e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir,-dedi.

“Misr-O‘zbekiston” do‘stlik jamiyati kotibi (Misr) Raafat Muhammad Sakr — O‘zbekistonning saylov tizimi va bu boradagi tajribasi o‘rganishga arziydi. Ba‘zi mamlakatlarda davlat rahbari parlament tomonidan saylanadi. O‘zbekistonda Prezident umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov asosida fuqarolar tomonidan saylanishi demokratiyaning katta yutug‘idir. Prezident saylovi ochiq, oshkora va ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tgani e‘tiborga molik. “Misr-O‘zbekiston” do‘stlik jamiyati mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikni, jumladan, fan, ta‘lim, sayyohlik va madaniyat yo‘nalishlaridagi o‘zaro aloqalarni rivojlantirishga, xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga hissa qo‘shib kelmoqda. Shu maqsadda O‘zbekistonning turli vazirlik va idoralarida bo‘ldik. “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasida mamlakatlarimiz o‘rtasida sayyohlar almashinuvini rivojlantirish bo‘yicha muzokaralar o‘tkazdik. Misr bilan O‘zbekiston o‘rtasida o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirishdan ham manfaatdormiz,- deb o‘zaro aloqalardan manfaatdorligini bildirdi.

“Buruji” kompaniyasining tashqi iqtisodiy aloqalar departamenti boshlig‘i (Birlashgan Arab Amirliklari) Ali Abdulla Muborak Al Mazrui — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga oid qonunchilik mukammal va xalqaro andozalar talablariga to‘liq javob beradi. Huquqiy zamin mustahkam bo‘lgani uchun ham Prezident saylovi yuqori saviyada o‘tdi. Toshkentning ko‘plab saylov uchastkalarida bo‘lib, bunga shaxsan ishonch hosil qildim. Xalqaro kuzatuvchilarning saylov jarayonini bevosita kuzatib borishi uchun ham keng imkoniyat yaratildi. Saylovda ishtirok eta olmaydigan bemorlar, qariyalarning uylariga saylov qutilari olib borilgani, O‘zbekistonning xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarida saylov uchastkalari tuzilgani har bir fuqaroga o‘z huquqidan to‘la foydalanish imkonini berdi. Mazkur saylovni kuzatish uchun uch yuzga yaqin xalqaro kuzatuvchi kelgani bejiz emas. Bu O‘zbekistonning nufuzi oshib borayotganidan, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, iqtisodiy yuksalish borasidagi ulkan yutuqlar xalqaro miqyosda katta qiziqish uyg‘otayotganidan dalolatdir,- deya davlatimizda olib borilayotgan siyosatning to‘g‘riligini tasdiqladi.

MDH ijroiya qo'mitasi bo'lim boshlig'i Ivan Kotlobay – Jizzax viloyatidagi saylov uchastkalarida bo'lib, saylovlar demokratik talablar darajasida har tomonlama puxta tayyorgarlik bilan o'tayotganiga guvoh bo'ldim. Uchastkada saylovchilar uchun barcha sharoit yaratilgan. Ayniqsa, saylovchilarning faolligi menda katta taassurot koldirdi. Har bir saylovchi o'z ovozi mamlakatning ertangi kuniga daxldor ekanini biladi. Men suhbatda bo'lgan saylovchilar o'zi tanlagan, ma'qul kelgan nomzodlarga ovoz berayotganini aytdi. Demak, ular Vatani taqdiri, o'zining kelajagini kimga ishonishni o'zlari hal etmoqda,- dedi.

Quddus universitetining Osiyo va Afrika mamlakatlari instituti professori, siyosatshunos (Isroil) Vladimir Mesamed – O'zbekistonni yaxshi bilaman. Shu yurtda o'qiganman. O'zbekiston demokratik yo'ldan borayotganiga ishonch hosil qilganman. Bugungi saylov milliy qonunchilik va xalqaro demokratik me'yorlar asosida o'tayotganiga guvoh bo'ldim. O'zbekistonda fuqarolarning saylovda erkin qatnashishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Bu fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan mamlakat uchun juda katta yutuqdir. O'zbekiston – jadal taraqqiy etayotgan mamlakat,- dedi.

MDH kuzatuvchilari missiyasi a'zosi Igor' Borkovskiy – Qoraqalpog'iston Respublikasiga birinchi marta kelishim. Bu erda ham saylovga qizg'in tayyorgarlik ko'rilgan. Qaysi uchastkada bo'lmayin, saylovchilarning faolligini ko'rmoqdaman. Ayniqsa, ovoz berayotganlar orasida yoshlar ko'pchilik ekani ularning mamlakatda kechayotgan siyosiy jarayonlarga befarq emasligidan dalolat beradi,- dedi.

**Ikkinchisi** – alohida, o'zi yashayotgan davlatda ijtimoiy-siyosiy masalalar bo'yicha monitoring olib borayotgan ekspertlar guruhining fikrlari. Ular quyidagilar:

“Sogdian” assotsiatsiyasining loyihalar bo'yicha direktori (Frantsiya) Did'e Shode – Andijon shahrida saylov jarayonlari bilan tanishdim. Hamma joyda saylovga tayyorgarlik ishlari yuqori saviyada tashkil etilgan. O'zbekistonga Prezident saylovi kuzatuvchisi sifatida birinchi bor kelishim. Mamlakatingizda saylovni o'tkazish bo'yicha o'rgansa arziydigan boy tajriba to'plangan. Andijon shahridagi 35-saylov uchastkasida ovoz berish belgilangan me'yorlar asosida

o'tmoqda. Uchastka yashirin ovoz berishga mo'ljallangan kabinalar, saylov qutilari bilan ta'minlangan,-deya o'z fikrini bildirdi.

Frantsiya Respublikasi senatidagi "Frantsiya – Markaziy Osiyo" parlamentlararo do'stlik guruhi a'zosi Iv Pozzo di Borgoning fikricha O'zbekistonning milliy qonunchiligida saylovlarni adolat va tenglik tamoyili asosida o'tkazish normalari mustahkamlab qo'yilgani saylov jarayonlarida yaqqol o'z ifodasini topgan. Yaponiya Bosh vazirining maxsus maslahatchisi Isao Iidjima esa, saylovga katta hozirlik ko'rilgan va aholining faolligi yanada oshganligi, bu muhim siyosiy jarayonning tub mohiyatini odamlarga tushuntirish uchun ko'p ishlar qilinganini ko'rsatadi, - deb yozadi.

N'yu-Meksika shtati bolalar jamg'armasi ijrochi direktori (AQSh) Kerol Robertson Lopes — Erta tongda Farg'ona shahridagi 696-saylov uchastkasiga bordim. Prezident saylovi demokratik me'yorlarga mos tarzda tashkil etilganiga guvoh bo'ldim. Saylovchilarning faolligi, ayniqsa, yoshlarning ko'tarinki kayfiyati menda katta taassurot uyg'otdi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni doimo kuzatib boraman. Mamlakatingizda saylov tizimi yildan-yilga takomillashib bormoqda. Saylov kampaniyasining ilg'or jihatlaridan biri Prezidentlikka nomzodlar uchun saylovoldi tashviqotini olib borishda teng imkoniyatlar yaratilganidir. Buni ommaviy axborot vositalaridagi tashviqot materiallari, ko'chalarga o'rnatilgan ulkan bannerlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin edi. Birinchi marta ovoz beradigan fuqarolarga alohida e'tibor qaratilishi ham diqqatga sazovor. Yoshlarni mamlakat siyosiy hayotiga jalb qilish barqarorlikni mustahkamlashning muhim omillaridan biridir. Ovozlarni sanab chiqish jarayonida nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalardan kuzatuvchilar qatnashgani saylov ochiq-oshkora o'tkazilganidan dalolat beradi. O'zbekistondagi tinchlik va osoyishtalik, barqarorlik va hamjihatlik muhitiga havas qilsa arziydi,- deydi.

"Silk Road" madaniy-jamoat kompaniyasi direktori (Germaniya) Gerxard Birkl — Navoiy viloyatidagi saylov uchastkalarida ovoz berish jarayonini kuzatdim. Mamlakat kelajagi uchun muhim ushbu siyosiy tadbirda aholining faol ishtirok etgani e'tiborimizni tortdi. Saylovchilar emin-erkin, mamlakat ertasini o'ylab, o'zlari

xohlagan nomzodga ovoz berdi. Uchastkalarda tibbiyot, ona va bola xonalarini tashkil etish tajribasini boshqa davlatlarda, xususan, Germaniyada ham tatbiq etsa arziydi,- deb O'zbekistonda olib borilayotgan ishlarga tan beradi

“Pathfinder Trade and Invest” kompaniyasi ijrochi direktori (Buyuk Britaniya) Maykl Tomas — O'zbekistonda Prezident saylovi ko'tarinki ruhda, tenglik, oshkoralik, transparentlik va demokratik tamoyillar asosida o'tdi. Saylov yuksak saviyada tashkil etilgani, uchastka komissiyalari a'zolari o'z ishini puxta bilishi va to'g'ri bajargani samarasida e'tirozga sabab bo'ladigan hech bir holat kuzatilmadi. Mamlakatingizning mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash borasida olib borayotgan sa'y-harakatlari diqqatga sazovor. O'zbekistonda qaror topgan barqaror muhit, hukm surayotgan osoyishta hayot mamlakatingiz taraqqiyotida, uning xalqaro hamkorligining izchil mustahkamlanishida va xorijiy investitsiyani jalb etishida muhim rol o'ynamoqda. Zero, tinchlik va barqarorlik qaror topgan yurtgagina sarmoya kiritilib, muvaffaqiyatli biznes qilinadi,-dedi.

Malayziya Senati prezidenti o'rinbosari Doris Sofiya Ak Brodi — O'zbekistonda Prezident saylovi milliy qonunchilik doirasida va jahon andozalariga mos ravishda ochiq-oshkora o'tdi. Saylovchilar erta tongdan ovoz bera boshladi. Bunga men Toshkentdagi 160-saylov uchastkasida ovoz berish jarayonini kuzatish asnosida amin bo'ldim. Uchastkalarda saylovchilarni ro'yxatga olish tartibli tashkillashtirilgani e'tiborimni tortdi. Nogironlar, saylovga kelolmaydigan kishilar uchun ularning xonadonlarida ovoz berish tashkil etilgani ham diqqatga sazovor. Bu insonparvarlikning amaldagi ifodasi bo'lishi bilan birga, har bir fuqaroning saylash huquqini ta'minlashga qaratilayotgan e'tibor namunasidir. Saylov uchastkalarida siyosiy partiyalarning vakillari va kuzatuvchilar, jurnalistlar uchun barcha shart-sharoit yaratilgani, tibbiy xizmat, onalar va bolalar xonalarining tashkil etilgani e'tiborga molik. Saylovga bunday puxta tayyorgarlik ko'rilgani, har qanday holat hisobga olingani fuqarolar uchun keng qulaylik yaratdi,- dedi.

Gunadarma universiteti rektori (Indoneziya) Eko Shri Margiante — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini qator uchastkalarda bevosita kuzatib shunga amin bo'ldimki, mamlakatingizda har jihatdan puxta shakllangan,

demokratik tamoyillarga asoslangan, xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan saylov tizimi joriy etilgan. Saylovchilarning faolligi yuqori ekani yaqqol ko'zga tashlandi. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot o'sishi har yili 8 foizdan oshayotgani havas qilgulikdir. Bu mamlakatingizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, xalq farovonligini oshirish yo'lidagi izchil islohotlar samaralaridan. O'zbekiston barcha sohada jadal taraqqiy etmoqda. Shaharu qishloqlar chiroy ochmoqda, yangi uy-joylar, mahobatli zamonaviy inshootlar barpo etilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar uzviyligi va bosqichma-bosqichligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon umumiy o'rta ta'lim maktabidan so'ng o'quvchilar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim bilan to'la qamrab olinishida namoyon bo'layotir. Dunyodagi nufuzli xorijiy universitetlarning O'zbekistonda filiallari faoliyat yuritayotgani mamlakatingizda ta'lim tizimi g'oyat taraqqiy etganining yorqin ifodasidir,- deya ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlardan hayratlanadi.

Ozarbayjon Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi raisi Mazaxir Panaxov — Prezident saylovi mamlakat hayotidagi muhim tarixiy voqeadir. Bu jarayonda butun xalqning, mamlakatning kelajagi belgilanadi. O'zbekistonda saylovlar adolatlilik, ochiqlik, oshkoralik va transparentlik kabi demokratik printsiplar asosida o'tganiga guvoh bo'ldik. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan demokratik tamoyillarning amaldagi yana bir ifodasi bo'ldi-dedi.

Pokiston Milliy assambleyasi deputati Gous Bax Xon Mahr — O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi mamlakatingiz saylov qonunchiligini yanada takomillashtirdi. O'zbekiston Prezidenti saylovi ushbu takomillashgan tizim asosida, demokratiya yanada rivojlangan sharoitda o'tdi. Saylovoldi jarayonini kuzatishim shuni ko'rsatdiki, bu siyosiy tadbirga katta tayyorgarlik ko'rilgan. Uchastkalarda saylov yuksak darajada o'tishi uchun barcha zarur shart-sharoit yaratilgan. Prezident sayloviga oid qonunlarning xalqaro me'yorlarga to'la mos kelishi, xalqingizning

huquqiy madaniyati va siyosiy faolligi saylovning yuqori saviyada o'tishida muhim omil bo'ldi,- deya o'z fikrini bildirdi.

**Uchinchisi** – O'zbekiston fuqarolarining fikrlari.

T.Beknazarov, A.Ortiqboev, F.Ubaydullaev, N.Rahimov va boshqalarning O'zbekistonda bo'lib o'tayotgan saylovlarning tunyo talablari darajasida o'tayotganligi haqidagi ajoyib fikrlari va mulohazalari diqqatni tortadi. Ular nafaqat o'z fikrlarini bildiribgina qolmay, balki UzA xabarlari orkali xalqaro munosabatlarni ham tahlil qilib internet saytlarida monitoring olib bordilar.

Bundan tashqari, Internetning – E-mail:info@xs.uz. saytlarida, shuningdek, «Xalq so'zi» gazetasi saxifalarida o'zining mazmunli maqola va fikrlari bilan tinimsiz faoliyat olib borgan Qobil Xidirovni alohida ta'kidlash lozim deb o'ylaymiz.

Shunday qilib, O'zbekistonda bo'lib o'tgan saylovlar haqida yuqorida aytilgan xalqaro ekspertlar bilan O'zbekiston ekspertlarni keng fikr va mulohazalari bildirgan. O'zbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar, shuningdek Prezident saylovi yuqori darajada ochiqlik va oshkorolik bilan o'tganligining guvohi bo'ldik.

## XULOSA

Yurtimiz tarixan qisqa davrda davlatchilikning barcha tizimini shakllantirish va mustahkamlash borasida salmoqli o'sishga erishdi. Mamlakatimizdagi siyosiy, iqtisodiy va sud-huquq tizimi taraqqiyoti, aholining savodxonlik darajasi, yoshlar ega bo'lgan imkoniyatlar, shuningdek, saylov jarayonining oshkoralik va ochiqlik asosida o'tishining ta'minlanishi uchun hukumat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar O'zbekistonning kelgusi ravnaqida katta ahamiyat kasb etadi, albatta.

Yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlari shakllanmoqda, jamoatchilikning siyosiy partiyalar faoliyati, saylovlarda qatnashadigan halqaro kuzatuvchilar tarkibi haqidagi fikrlari ham kengaymoqda.

O'zbekiston o'zining saylov tajribasiga ega davlatlar qatorida turadi. Shu bois, saylovchilar o'zlari munosib topgan nomzodni yoqlab ovoz berishlari asnosida mamlakatning kelajakdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yuzasidan o'z xohish-irodalarini ifoda etdi.

Demokratik jarayonlar yanada rivoj topmokedaki, buni O'zbekistonning so'nggi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan, mamlakatda turli sohalarda erishilayotgan muvaffaqiyatlardan ham bilish mumkin.

Prezident saylovi nafakat O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bardavomligini ta'minlaydi, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining siyosiy-iqtisodiy barqororligiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda konun ustuvorligini ta'minlash, ishbilarmonlik muhiti va sarmoya sohasidagi qonunchilikni liberallashtirish bo'yicha diqqatga sazovor o'zgarishlar ro'y berdi.

Qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar esa, xorijlik sarmoyadorlarning qiziqishi sezilarli darajada ortishiga olib kelayotir. Buni AQSh hamda Evropa Ittifoqi davlatlari sarmoyadorlarining amaliy sa'y-xarakatlari, shuningdek, reyting agentliklarning ijobiy baholari ham tasdiqlamoqda.

O'zbekiston mustaqillik yillarida erishgan eng muhim muvaffakiyatlaridan yana biri ko'p millatli mamlakatda millatlararo va dinlararo totuvlikni ta'minlashga

muvaffak bo'linganidir. Etnik hamda diniy omil ta'siridagi mojarolardan yirokligi bilan ham O'zbekiston dunyoning ko'pgina davlatlari uchun namuna bo'la oladi.

Siyosiy partiyalar tomonidan saylovoldi tashviqotining barcha vositalaridan faol foydalanilgani jamotchilik fikrining shakllanishi, o'zlarining siyosiy qarashlari hamda dasturlari bilan saylovchilarni chuqur tanishtirishlari, fuqarolarning real talablari va kayfiyatini aniqlashga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Bularning barchasi partiyalarga yanada rivojlanish hamda zarurat tug'lganda, siyosiy yo'nalishga tuzatish kiritishga hizmat qiladi. O'zbekistonda 2015-yilgi saylov kampaniyasi davrida saylovoldi tashviqoti qizg'inligi darajasi sezilarli o'sgani, shuningdek, tashviqot sharoitida ochiqlik, oshkoralik va tenglik printsiplari ta'minlanganini saylov jarayonlarini kuzatib borayotgan halqaro kuzatuvchilar tomonidan ham e'tirof etilgani bejiz emas.

Asosiy narsa – har bir saylovchi o'z xohish-irodasiga tayangan holda, tanlovini ongli va mas'uliyat bilan amalga oshirdilar. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylov oldi tashviqoti jadal, milliy qonunchilik qoidalariga qat'iy amal qilingan holda, haqqoniy raqobat, ochiq kurashda har qanday to'siqlarsiz, ayni paytda turli siyosiy partiyalar qarashlariga hurmat muhiti hamda yuqori fuqarolik faolligi sharoitida o'tkazilgani muxim rol o'ynaydi, albatta.

Shunday qilib O'zbekiston o'zining mo'staqillik davrida saylov tizimi sohasida tub islohotlarni amalga oshirdi. To'g'ri va odilona olib borilgan siyosat natijasida davlatimizda olib borilgan saylovlar Qonunan to'g'ri bo'lib, oshkoralik va ochiqlik bilan o'tkazildi.

II. Respublika Prezidenti asarlari:

1. Karimov Í.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar, 6-jild. – T., 151-b
2. Karimov Í.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston, 1992.
3. Karimov Í.A « Men o'zimni nafaqat o'zbek Qoraqalpoq xalqining ham farzandi deb ham bilaman». Qoraqalpog'iston Respublikasi saylovchilari vakillari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqi. 1992-yil 2-dekabr`.
4. Karimov Í.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati.- T., 1993
5. Karimov Í.A. O'zbekiston –bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li // Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.T.:1994.
6. Karimov Í.A. O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. –T.: O'zbekiston, 1995.
7. Karimov Í.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1.- T.:O'zbekiston,1996.
8. Karimov Í.A. Xavfsiz va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. –T.,1998.
9. Karimov Í.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. –T.,1999.
10. Karimov. Í.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: O'zbekiston, 2005.
11. Í.A. Karimov. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. Asarlar, 14-jild. – T.: «O'zbekiston», 2006.
12. Karimov Í.A « Vatanimimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish — oliy saodatdir ». Toshkent — «O'zbekiston» —2007
13. Karimov. Í.A. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi» nomli ma`ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 13 noyabr`.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T. Iqtisodiyot. 2011. –B. 7.
15. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2012.
16. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. 2015 yil 12 yanvar'. // Xalq so'zi. 2015 yil, 13 yanvar'.

## **II. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:**

16. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi axborotnomasi. 11-son, T.,. 48 b.
17. Mustaqillik Deklaratsiyasi. Oliy sovetning II sessiyasida 1990 y. 20-iyunda kabul kilingan.
18. O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1991 y. 31 avgust.
19. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 1992; -2014.
20. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1993 y. Dekabr.
21. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1994 y. Sentyabr.
22. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Nukus: Qoraqalpog'iston, 1998.
40. Inson huquqlari. Inson huquqlari to'g'risida Bill'. T.: Adolat, 1992. 264 6.;
41. Xalqaro shartnoma va O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T.1. T.: Sharq, 1996. - 480 6.;

42. YuNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlari. T.: Adolat, 2004. 298 b.;
43. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, №1-2. 176 b.;
44. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 yil, №4-5, 60-modda;
45. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008 yil, №12, 637-modda;
46. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2011 yil, №12/1, 344-modda;
47. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2012 yil, №4, 104-modda;
48. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 y., 5-son, 125-modda;
49. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 3-son, 38-modda;
50. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 1-son, 20-modda; 9-son, 206-modda;
51. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 y., 5-6-son, 153-modda;
52. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y., 9-10-son, 134-modda;
53. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 37-son, 408-modda; 51-son, 514-modda;
54. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 52-son, 510-modda;
55. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 51-son, 574-modda; 2014 y., 4-son, 45-modda.
56. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2005 yil, №1, 10-modda.
57. Qaraqalpaqstan Respublikasi Joqarg'ı Kengesi 27.06.2014. 209-XV -sanlı Qararına tiykar ozgerisler kiritilgen.

58. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2005 yil, №1, 12-modda;
59. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008, №12, 640-modda.

### **III. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va boshqa adabiyotlar**

23. Levitin L, Karlayl D. Islom Karimov - yangi O'zbekiston Prezidenti. T.: O'zbekiston, 1992.
24. Saidov A.X. Xalqaro huquq: Darslik. –T.: Adolat, 2001. –B. 283-304.
25. Saidov A.X O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va saylov tizimi. Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H. Rustamboev. – T.: TDYuI nashriyoti, 2005. 5-40 b.
26. Xalilov E.H. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o'rni.T.:O'zbekiston.1997
27. Azizov N. Oqsoqollar qanday saylanishi kerak? // Huquq.-Pravo.-Lao'. 2004.
28. Abrorov M. Yangicha fikrlash va milliy urf-odatlar. T.: Fan, 1990.
29. Azizxo'jaev A. Davlatchilik va ma'naviyat. T.: Sharq, 1997.
30. Azizxo'jaev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. T., 2001.
31. Bobojonova D.B. O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning xususiyati. - T.,1995.
32. Vatan va millat muqaddasdir. – T.: Ma'naviyat, 2000. – 104 b.
33. G'oyibnazarov Sh. Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish yo'li. T. O'zbekiston. 2011. – 64 b.
34. Qudratxo'jaev Sh.T. O'zbekistonda professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari. T.: Sharq. NMAK, 2007.
35. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O'zbekiston, 2001.
36. M.Rustamboev, D.Ahmedov, S. Xidirov, I. Bekov «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganamiz» «Yangi asr avlodi», 2005-yil
37. Nazarov Q. O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi. T.: «Akademiya», 2005.
38. Mustaqillik: izohli ilmiy - ommabop lug'at.T.,Sharq, 2006.
39. Xalq so'zi. 2015 yil 8 yanvar', № 4 (6187) // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi saylov okruglarini tuzish to'g'risida O'zbekiston

Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Qarori. Xalq so'zi. 2015 yil 7 aprel', № 68 (6251) // Qobul Xidirov "Xalq so'zi" muxbiri.

### **INTERNET MATERIALLARI:**

<http://WWW.Uzbekistan.uz> O'zbekiston

<http://WWW.ziyonet.uz> Ta'lim tizimi

[WWW.spc.gov.uz](http://WWW.spc.gov.uz) Xukumat portali

Internet sayt – E-mail:[info@xs.uz](mailto:info@xs.uz) Xalq so'zi.

Internet sayt – E-mail:[info@xs.uz](mailto:info@xs.uz) Xalq so'zi. «Jahon» AA.



Internet sayt – E-mail:[info@xs.uz](mailto:info@xs.uz). Xalq so'zi.Qobil Xidirov.

Internet sayt – E-mail:[info@xs.uz](mailto:info@xs.uz). Xalq so'zi.2015 yil 6 aprel'.

Internet sayt – E-mail:[info@xs.uz](mailto:info@xs.uz). Xalq so'zi.O'zbekiston Respublikasining Londondagi elchixonasida...

Internet sayt – E-mail:[info@xs.uz](mailto:info@xs.uz). Xalq so'zi.// O'zbekiston Respublikasining Londondagi elchixonasida O'zbekiston Prezidenti saylovining yakunlariga bag'ishlangan brifing haqida.

ILOVALAR



## **Hozirda O'zbekistonda 4 ta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatib kelmoqda.**


- 1) O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasining (2003 yil 15 noyabr kuni)**
- 2) O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi (XDP) –(1991 yil 1-noyabr)**
- 3) O'zbekiston «Adolat» sotsial demokratik partiyasi (1995 yil 18 fevral)**
- 4) O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (O'zMTDP) — 1995 yil 3 iyun**

# O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi

Liberal-demokratik partiyasining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

**Birinchi.** Siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkor va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar ochish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning ushbu tabaqasi manfaatlarini himoyalash barobarida uning ertangi kunini ta'minlash.

**Ikkinchi.** Partiyaning kuch va imkoniyatlarini boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlikda mamlakatning milliy manfaatlari va taraqqiyotining strategik istiqbollarga javob beradigan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurish, fuqarolik institutlarining rivojiga keng yo'l ochib berish.



# O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi

O'zbekiston XDPning dasturiy maqsadlari:

1. Milliy mustaqillikni mustahkamlash.  
islohotlarni amalga oshirish orqali ravnaq topgan qudratli, demokratik davlat, adolatli, insonparvar jamiyatni bunyod etish.
2. Tub iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy
3. Kishilarning millati, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, munosib hayot kechirish uchun teng imkoniyatlarni yaratish.
4. Fuqarolarning erkinlik va huquqlari, tinch hayot kechirishini kafolatlash.




## O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratikpartiyasi(O'zMTDP)


Partiya shiori: «Millat, inson va Vatan manfaati muqaddasdadir».

Partiyaning maqsadi: davlatning umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy tiklanishi. Yoki boshqacha aytganda, partiyaning oliy maqsadi:

1. Millatning ma'naviy birligi.
2. Vatan (Turkiston) – yagona oila.
3. Kuchli demokratik davlat.
4. Milliy qadriyatlar.
5. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va umumjahoniy integratsiya.
6. Zamon kishisi.
7. Milliy istiqbol.



# O'zbekiston «Adolat» sotsial demokratik partiyasi



Partiya shiori: «Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak». Partiyaning maqsadi: huquqiy demokratik davlat barpo etish, ijtimoiy adolat o'rnatish. Yoki boshqacha aytganda, «Adolat» SDP o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan:

1. Huquqiy demokratik davlat qurish.
2. Mamlakat mustaqilligini mustahkamlash.
3. Vatanga sodiq xizmat qilish.
4. Adolatli fuqaroviy jamiyat qurish.
5. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-demokratik talablarga hamda mamlaka-timizda yashab turgan barcha millat va elatlarning orzu-umidlariga monand shart-sharoit yuzaga keltirishga hissa qo'shish.



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**«O'zbekistonning mustaqillik davrida saylov tizimida yuz bergan  
o'zgarishlarning mohiyati va tarixiy ahamiyati»  
mavzusida**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

Yuldasheva Shahlo - «Tarix o'qitish metodikasi»  
magistranti  
Ilmiy rahbar : Ya. A. Abdullaeva – tarix fanlari  
doktori, dotsent

## **mohiyati va tarixiy ahamiyati» mavzusi**

<b>Kirish</b> .....	4
<b>I.Bob. Mavzuning manbaviy-huquqiy asoslari va tarixshunosligi</b>	
I.1. Mavzuning tarixshunosligi masalalari. ....	13
I. 2. Inson huquqlari va saylov tizimi asoslarining yaratilishi.....	23
<b>II.Bob. O'zbekistonning mustaqilligi davrida saylov tizimida yuz bergan tub o'zgarishlar</b>	
II.1. O'zbekistonda saylov qonunchiligi taraqqiyoti bosqichlari va turlari. Ko'ppartiyaviylik.....	37
II.2. O'zbekistonda Prezident boshqaruvi va qonunchilik haqida.....	47
<b>III.Bob. Saylov jarayonlarining olib borilishi 2014, 2015 yillar</b>	
III.1. O'zbekistonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar haqida ma'lumotlar, fikr va mulohazalar.....	63
III.2. O'zbekistondagi saylovlar haqida ekspertlarning fikr va mulohazalari.....	72
<b>Xulosa</b> .....	83
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	85
<b>Ilovalar</b> .....	90

## MAVZUNING DOLZARBLIGI.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 27 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik Kengashini tuzish to'g'risidagi" Qarorining qabul qilinishi hamda Kengashning ishchi organi bo'lgan Muvofiqlashtiruvchi metodik markazning tashkil etilishi ham tizimli ravishda ish olib borishning naqadar muhimligidan dalolat beradi.

**Tadqiqotning davriy chegarasi: Dissertatsiya uchun  
davriy chegara etib O'zbekistonning mustaqillik  
davri olindi.**

**Tadqiqotning hududiy chegarasi: O'zbekiston  
Respublikasi deb belgilandi.**

# MUAMMONING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Metodologik yondoshuvlarning xarakteriga va ilmiy baholarning xususiyatiga qarab, u quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi:

- 1) O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga erishgandan keyingi davlatimiz rahbari tomonidan davlat rivoji, parlament tizimi sohasi tegishli masalalarga bag'ishlangan asarlari tahlili;
- 2) O'zbekistonning mustaqilligi davridagi nashrlar.
- 3) Internet saytidagi O'zbekistondagi siyosiy-ijtimoiy voqea va hodisalar, parlament masalalari, saylovlar haqidagi fikr va mulohazalar.

# TADQIQOTNING MAQSADI VA VAZIFALARI

Ishning maqsadi O'zbekiston davlat mustaqilligini mustahkamlash, siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy tiklanish va yuksalishi yo'lida olib borgan tadbirlari, saylov tizimida yuz bergan ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatish xulosalar bildirishdan iborat. Shu munosabat bilan mazkur ish oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- - Saylov tizimining huquqiy asoslarining yaratilishini ko'rsatish;
- - O'zbekistonning mustaqilligi davrida saylov tizimida yuz bergan tub o'zgarishlarni yoritib berish;
- - Huquqiy demokratik davlat qurishda saylov tizimidagi hurfihrilikning ahamiyatini va o'rnini ko'rsatib berish;
- - Saylov turlarini aniqlash;
- - Mustaqillik davrida saylov jarayonlarining olib borilishini ko'rsatish;
- - O'zbekistonda Prezident boshqaruvi va saylovlari haqida fikr yuritish;
- - O'zbekistonda Oliy Majlis qonunchilik palatasiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlarning olib borilishi haqida fikr yuritish.

## TADQIQOTNING ILMIIY YANGILIGI

O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga ega bo'lgandan keyin saylov tizimi tubdan o'zgardi. Qiziqarli ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazishga harakat qilindi.

# MAGISTRLIK ISHINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI QUYIDAGILARDAN IBORAT


Tadqiqot maktablar va oliy o'quv yurtlari, kolledjlar darsliklariga kiritilmagan ma'lumotlarni bera olishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu tadqiqot oliy o'quv yurtlari talabalarini, kolledj va maktab o'quvchilarini qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashda amaliy yordam beradi.



Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, «Yaxshi bilamizki, demokratiya, demokratik jamiyatning bosh talabi — bu odamlarning o'z xohish — irodasini erkin ifoda etish, saylash va saylanish huquqini ta'minlashdan iborat. Eng muhimi, saylovlar xalqimizni parokanda va bir — biriga qarshi qilishga emas, balki elu yurt yo'lida yanada birlashtirishga xizmat qilishi zarur».


Prezidentimiz Islom Karimov 2010 yil 12 noyabrda “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Kontseptsiyasi” (Oliy Majlis palatalari qo’shma majlisidagi) mavzusidagi ma’ruzasida demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning oltita ustuvor yo’nalishlari belgilandi.

- Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish
- Sud-huquq tizimini isloh qilish
- Axborot sohasini isloh qilish, axborot va soʻz erkinligini taʼminlash
- Oʻzbekistonda saylov xuquqi erkinligini taʼminlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish
- Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish
- Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish



**mè yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, hayotimizga tatbiq etilmoqda. Umuman saylov tizimining xuquqiy asoslari qo'yidagi xujjatlar bilan shakllantiriladi.**

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- Qonunlar:
- Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida;
- Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida;
- O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida va b.;
- Markaziy saylov komissiyasining qarorlari, nizomlari va yo'riqnomalari



# **Hozirda O'zbekistonda 4 ta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatib kelmoqda.**


- 1) **O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasining (2003 yil  
15 noyabr kuni)**
- 2) **O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi (XDP) —(1991 yil  
1-noyabr)**
- 3) **O'zbekiston «Adolat» sotsial demokratik partiyasi (1995  
yil 18 fevral)**
- 4) **O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi  
(O'zMTDP) — 1995 yil 3 iyun**

# O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi

Liberal-demokratik partiyasining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

**Birinchi.** Siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkor va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar ochish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning ushbu tabaqasi manfaatlarini himoyalash barobarida uning ertangi kunini ta'minlash.

**Ikkinchi.** Partiyaning kuch va imkoniyatlarini boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlikda mamlakatning milliy manfaatlari va taraqqiyotining strategik istiqbollari javob beradigan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurish, fuqarolik institutlarining rivojiga keng yo'l ochib berish.



# O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi

O'zbekiston XDPning dasturiy maqsadlari:

1. Milliy mustaqillikni mustahkamlash.  
islohotlarni amalga oshirish orqali ravnaq topgan  
qudratli, demokratik davlat, adolatli, insonparvar  
jamiyatni bunyod etish.
2. Tub iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy
3. Kishilarning millati, siyosiy qarashlari, diniy  
e'tiqodlaridan qat'iy nazar, munosib hayot kechirish  
uchun teng imkoniyatlarni yaratish.
4. Fuqarolarning erkinlik va huquqlari, tinch hayot  
kechirishini kafolatlash.




## O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratikpartiyasi(O'zMTDP)


Partiya shiori: «Millat, inson va Vatan manfaati muqaddasdadir».

Partiyaning maqsadi: davlatning umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy tiklanishi. Yoki boshqacha aytganda, partiyaning oliy maqsadi:

1. Millatning ma'naviy birligi.
2. Vatan (Turkiston) – yagona oila.
3. Kuchli demokratik davlat.
4. Milliy qadriyatlar.
5. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va umumjahoniy integratsiya.
6. Zamon kishisi.
7. Milliy istiqbol.



# O'zbekiston «Adolat» sotsial demokratik partiyasi




Partiya shiori: «Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak». Partiyaning maqsadi: huquqiy demokratik davlat barpo etish, ijtimoiy adolat o'rnatish. Yoki boshqacha aytganda, «Adolat» SDP o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan:

1. Huquqiy demokratik davlat qurish.
2. Mamlakat mustaqilligini mustahkamlash.
3. Vatanga sodiq xizmat qilish.
4. Adolatli fuqaroviy jamiyat qurish.
5. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-demokratik talablarga hamda mamlaka-timizda yashab turgan barcha millat va elatlarning orzu-umidlariga monand shart-sharoit yuzaga keltirishga hissa qo'shish.


## **o'z nomzodlarini tavsiya qilishdi.**



1. **O'zbekiston Liberal – demokratik partiyasi (O'zLiDeP) Islom Abduq'anievich Karimov nomzodini Prezidentlikka munosib ko'rib tavsiya qilishdi.**
2. **«O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zbekiston XDP)»dan Hotamxon Abduraxmanovich Ketmonov nomzodi ko'rsatildi.**
3. **O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (O'zMTDP) Akmal Holmatovich Saidovning nomzodini tavsiya etdi.**
4. **O'zbekiston «Adolat» sotsial – demokratik partiyasi («Adolat» SDP) esa, Nariman Majitovich Umarovning nomzodini tavsiya qilishdi.**



## Majlisi qonunchilik palatasiga saylov yakunlariga bag'ishlangan brifing natijalari.

- Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 52 nafar;
- O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 36 nafar;
- O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 27 nafar;
- Ozbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 20 nafar deputat saylandi.





**E'tiboringiz**

**uchun**

**rahmat!**